

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMLI TOSHKENT PEDAGOGIK UNIVERSITETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI

“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar
metodikasi” kafedrası

Qosimova Iroda

**5141600- BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT -TARBIYA VIY ISH TA'LIM
YO'NALISHI BO'YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN**

“2 – sinf O'quvchilarida halolik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini
shakllantirishda xalq ogzaki ijodi janrlaridan foydalanishni ”

MAVZUSIDAGI BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Rahbar: Normurodova B

TOSHKENT – 2012

MUNDARIJA:

KIRISH.

I.BOB. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish pedagogik muammo sifatida.

I.1. Xalq og'zaki ijodi janrlarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarining mazmuni va mohiyati.

I.2. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning o'rni.

I.BOB bob bo'yicha xulosa.

II.BOB. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning pedagogik shartlari.

II.1 Xalq og'zaki ijodi janrlarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarining ishlari mazmuni va uni tashkil etish usullari.

II.2. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning tashkil qilish usullari va bola tarbiyasidagi ahamiyati.

II.BOB bob bo'yicha xulosa.

III -Bob . 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning shakl va metodlari.

3.1. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish bo'yicha tajriba – sinov ishlarini tashkil etilishi.

3.2. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning bo'yicha natijalar tahlili.

Umumiy xulosalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ma'naviyat–insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan,odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan,vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

I.A.Karimov

K I R I S H

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi Opzбекiston Respublikasi Qomusi sahifalarida har bir fuqaro-ning ilm olish, opz ijodiy kuch va qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish ta'kidlanadi. Hozirgi zamon maktabi tubdan yangi-
lanmoqda. Mamlakatimizda “Ta’lim topgprisida”gi Qonunning qay-tadan koprib chiqilganligi maktabning buguni va kelajagiga umid bilan qarashga undaydi.Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlarimiz ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma'lumotlarni oladilar. Maktab yoshlarning dunyoqarashlariga poydevor hamda gpoyaviy e'tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxt-saodati yoplida sidqidildan mehnat qilishga tayyorlaydi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarida aytganlaridek “Agar ertangi kunimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo. Mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutloqo o'zgartirishimiz kerak, aytish kerakki, kadrlarni puxta qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan, o'ylaymanki, biron-bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi”¹.

1.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch” asari. T. 2008 yil.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan ulkan, bebaho ma'naviy va ma'daniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim vazifa bo'lib qoldi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagicha fikr bildirganlar: «Xalqimiz tayanchi-ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim»². Zero, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarda xalqimizga xos bo'lgan insonning axloqiy-ruhiy kamolot masalasi yetakchi o'rin tutadi. Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand-nasihatlar va o'g'itlari alohida o'rin egallaydi. Donishmandlarning pand-nasihatlar umriboqiy ma'naviy boylik hisoblanadi. Chunki ularning pand-nasihati hayotdan, hayot tajribasidan kelib chiqqan va ezgu orzu-niyatni ifodalaydi hamda umuminsoniy mohiyat kasb etadi. Ulug' donishmandlarning pand-nasihatlar, o'g'itlari zahirida insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari yotadi. Diyorimizda yaratilgan ta'limiy-axloqiy pand-nasihat tarzidagi asarlar bugungi kunda ham yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim qo'llanma, ta'lim-tarbiyaning muhim omili bo'lib kelmoqda.

Yoshlarning g'oyaviy-siyosiy ongini shakllantirish, ularda atrof-muhitga, jamiyatga ongli munosabatda boplash, jonajon Vatanini cheksiz sadoqat bilan sevisht, xalqimizning milliy qadriyatlarini e'zozlash hissini tarkib to'tirish – vatanparvarlik tarbiyasining mag'pzi bo'lmog'p lozim. Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy shakllarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishini talab etmoqda.

prezident I.A. Karimovning Vazirlar maxkamasining majlisidagi “Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” takidlanganidek,

“Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning zng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan

²Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011 йил, 70-71-бетлар.

²И.А.Каримов. Буюк мақсад йулидан оғишмайлик. Т., «Ўзбекистон», 1993 й, 8-б.

insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz".

Ma'lumki, o'zoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarda inson'arvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. SHarq mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari ham ana shunday boy meroslari ham shular jumlasiga kiradi. Lekin bu boy merosimizdan odob-axloqqa oid durdonalardan etarlicha foydalanmoqdamiz deb bo'lmaydi. Endilikda oldimizda turli jabhalarda ta'lim-tarbiyaviy ishlarimiz sohasida bu durdonalardan to'la foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldik. Nafaqat maktablarda, balkim maktablardan tashqari ta'lim - tarbiyaviy muassasalarda, mahallalarda o'tkaziladigan har bir ta'lim - tarbiyaviy tadbirlarni ma'naviyat darslariga aylantirish bu vazifani ado etish uchun yaxshi imkoniyatlar ochib berilmoqda. Jumladan, buyuk mutafakkir allomalar Kaykovus, Yusuf Xos Xojib, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Sodiq Qashqariy, Abdulla Avloniy va boshqalarning xulq-odobga oid asarlarini, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganishga, ularning mazmunini sharhlashga, hayot muammolarini echish uchun ular pandnomalarini taqqoslashga bag'ishlansa maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki, jamiyatda yashayotgan, har bir kishi aql (bilim) sari qadam bosar ekan, bu ugitlarni bevosita o'rgatishi ular ongiga istasa-istamasa ham ta'sir etadi. Allomalar asarlarini o'rganishi ularning hayot faoliyatini chuqur bilishidan boshlanadi. Har kim o'zining psixologik nuqtai nazardan mavzu va materialni o'zi tanlaydi. Lekin, hamma uchun ham zarur bo'lgan hayotiy mavzu bu odob-ahloq mavzusidir. Odob - ahloq mavzusi, insonni barkamol komil inson qilib etkazish mavzusining asosi demakdir. Bu esa o'z navbatida xalqimizning bir qarashdan ozod bo'lib, mustaqillikka erishishi va uni yanada mustahkamlash shodiyonasidir. Ularni ma'rifiy va ma'naviy asosda qaraydigan bo'lsak o'tmishda ota - bobolarimiz, buyuk allomalarimiz, yuksak ma'rifat va ma'naviyat saboqlari xalqning baxt saodatini ozodlik, erkinlikda ko'rganlar, shuningdek Vatan va xalq istiqboli, baxtiyor turmush, fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq, holda turli

oqim va yo'nalishlar namoyondalarining fikrlari ham ma'lum darajada yoshlarga ta'lim-tarbiya manbasi hisoblangan. Ana shunday tarixiy davrlarda yashab, turli oqimlarga mansub holda tavallud qilib o'zlarining ma'naviy va ma'rifiy fikrlar bilan yoshlar ta'lim-tarbiyasiga Al - Xorazmiy, Al-Beruniy, Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy singari ko'plab daholar ilm va fan, adabiyot va ma'naviyat, pedagogika va psixologiya, tarix va geografiya, iqtisodiyot va huquq umuman ma'naviyat va ma'rifatning rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shganlar.

Oila – tarbiya o'chog'i. Oila–jamiyat negizi. Har bir insonda ilk yoshligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyat, maslaklar, qadriyatlar takomil to'adigan, mafkuraviy va ma'naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy qadriyatlarimiz ravnaq to'adigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridan biridir. Agar oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, unda kamol to'ayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga ezgu xususiyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy istiqlol g'oyasini singdirish uchun qulay sharoit yaratilgan bo'ladi.

1998 yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi va shu yilning o'zida Oila kodeksining qabul qilinishi hamda mamlakatimiz tarixda ilk bor tashkil etilgan Res'ublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining maqsadi ham davlatimizning oilani har tomonlama mustahkamlash, himoya etish borasidagi siyosatiga hamohang bo'lib, oilaga taalluqli boy va sarmazmun milliy an'analarni avylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilani mustahkamligi, barqarorligini ta'minlash, oila a'zolarining xuquqiy savodxonligini oshirish muammolarini ilmiy o'rganish, oilaviy hayotga bog'liq muammolarni tadqiq etishva fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishdan iboratdir.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov har chiqishlarida oila masalalariga katta e'tibor berar ekanlar, uning tarbiya beradigan maskanlar orasida eng muhimi qadrli ekanligiga oid fikrlari alohida ahamiyatga ega. «Oila haqida ga'irar ekanmiz, avvalambor oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak

nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz darkor». Mustaqillik yillarida res'ublika hukumati va prezidenti I.A.Karimov tomonidan oilaga ko'rsatilayotgan etibor, yillarga maqom berilayotganda oilani mustahamlash, nikohni qadriyat sifatida e'zozlashga qaratilgan chora tadbirlar tom ma'noda yurtimizda oila va farzandlar hukumatning doimiy g'amxo'rliги ekanligidan dalolatdir.

Taqdim etilayotgan kontse'tsiya oila institutini yurtimizda yanada mustahkamlash, u orqali milliy istiqlol g'oyasini fuqarolar ongiga singdirish ishlari uchun dasturulamol bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar, yangilanish jarayonlari va islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ozod va obod Vatan, rivojlangan fuqarolik jamiyati bar'o etish, shu tarzda xalq farovonligini ta'minlash, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash, oilaning barkarorligiga erishish ekan, oila bag'ishlangan kontse'tsiyaning vujudga kelishi o'ta dolzarbdir. Zero, Res'ublikamiz o'z iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarish, jamiyatni erkinlashtirish va demokratiyalash siyosatini izchil olib borar ekan, bizga jamiyatning negizi bo'lgan oilalar muammolari va istiqboliga qaratilgan kontse'tsiya zarur. Darhaqiqat, kontse'tsiya O'zbekistondagi oilalarning rivojlanishi istiqbolini tasavvur qilish, oila borasidagi ijobiy va muammoli masalalarni oldindan bashorat qilish uchun, mavjud muammolarning sabab va omillarini belgilab olish uchun ham xizmat qiladi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki «Oila» kontse'tsiyasini yaratish va bu bilan bog'liq ishlarning dolzarbligi hamda bajarilishining maqsadga muvofiqligi mustaqillik yillarida Res'ublika rahbari I. A. Karimov tashabbusi bilan yillarga berilgan maqomlar doirasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlarining oilani, ona va bolani ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilganligi, xukumat tomonidan oila manfaatlariga ajratilayotgan sarmoyalarning amalda oqlanishi zarurati bilan O'zbekiston Res'ublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 5 fevral 6-sonli «Ona va bola» Davlat dasturi to'g'risidagi qarorida belgilangan vazifalarning muhimlligi va dolzarbligidan ham kelib chiqadi.

Oila va jamiyat - mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, oilada jamiyatning tub mohiyati va muammolari o'z aksini to'adi. SHuning uchun ham oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bagrida voyaga etadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. SHu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, avvalo, oila qadriyatlarini eng ilg'or an'analarini tiklashga qaratilgandir.

Oilaviy tarbiya oilada ota-onalar, vasiylar yoki kata kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch-oilaviy tartibdir. Oila va mahalla boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila va mahalla hamkorligidagi tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi. Oila va mahallaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati bolalar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari qon-qarindoshligi, qo'ni-qo'shniliigi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch xissi, obro'ligi va hokazolar bilan ta'minlanadi.

Ma'lumki, xilma-xil faoliyat sharoitida bolaning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, bolani oila va mahalladan boshqa qaerda ham faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish mumkin. Oila va mahalla hamkorligidagi tarbiyaning qimmatliligi va ahamiyati YAna shundaki, kichik bolalik paytida oilada egallagan narsalar bir umr saqlanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning bolalarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan.

Oila va mahalla hamkorlikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-'edagogik tadqiqotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir, ularga muvofiq o'sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilani qo'shadigan hissasi turli yosh bosqichlarda turlicha bo'ladi va to'liqsimon o'zgaradi.

SHuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar, ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti:

2 – sinf o'quvchilarida halolik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq ogzaki ijodi janrlaridan foydalanishni ta'im – tarbiya jarayonida tashkil etish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti;

2 – sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning ta'lim-tarbiya jarayonidagi mazmuni.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:

2-sinf o'quvchilarida halolik, to'g'rilik, kamtarlik faziltlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishda ta'limning mazmuni.

2-sinf o'quvchilarida halolik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarining shakllantirishda turli ta'lim metodlaridan foydalanish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilar tajribasidan kelib chiqib ayrim tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitirub malakaviy ishining vazifalari.

2- sinf o'quvchilarida halolik, to'g'rilik, kamtarlik, fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish jarayonida nazariy va amaliy asoslarni o'rgatish va tahlil etish.

2-sinf o'quvchilarida halolik, to'g'rilik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishga oid adabiyotlarni tahlil qilish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchicining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish usullarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 bob, 6 fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari qismidan iborat.

I.BOB. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish pedagogik muammo sifatida.

I.1. Xalq og'zaki ijodi janrlarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarining mazmuni va mohiyati.

Xalq og'zaki ijodining ma'naviy qudrati yuksakdir. U hayot sinovlaridan o'tgan xalqning ma'naviy hayot boyligini, madaniy ko'rsatkichi, aqlu idroki, qudrati birdan-bir eng jozibali tarbiya vositasidair. Ozbek xalqining bolalarni tarbiyalash sohasidagi g'oyalari, hayot tajribalari, usul va vositalari, tadbir va choralari o'zbek xalq pedagogikasida to'la tokis muzassamlangandir. O'zbek xalqining milliy ongida uyg'onish boshlangan bugungi davrda unitilib ketayotgan qadimiy xalq an'analarini, udumlarini tiklashga astoydil kirishildi. Bu esa mustaqillik sharofatidan kelib chiqadigan huzurbaxsh yangilikdir.

Bolalar uchun nashr etiladigan juda ko'p gazeta va jurnallar ertaklarsiz chiqmaydi. O'zbekiston radiotelevideniya sinining muntazam ravishda olib boriladigan „ertak oqshomlari“ ko'satuv va eshittirishlaridan bahramand bo'lmagan, ertak eshitmagan kichikni to'ish qiyin. Ertaklar hamma zamonlarda ham e'zozlangan. Hamma xalq va elatlarda bo'lgani kabi o'zbek xalq ertaklarinig ko'pchiligi bola tarbiyasiga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. Ertaklar vositasida bolalarni o'z eliga, millatiga, ona vazifasidir. Qachonki, bola ona diyorini astoydil sevsa, e'zozlasa, o'zidan kattani hurmat qilsa kichikni ardoqlasa, uni ranjitmasa demak, bu – o'zi tinglagan ertakning ijobiy fazilati hisolandi. Chunki xalq ertaklarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, ular ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalarning ruhiyatiga mos, ularning turli voqealarga qiziqishlarini oshiruvchi vositadir. Shuning uchun ham xalq ertaklarini boshlang'ich ta'lim sinflarda o'tkaziladigan

«odobnoma», «nutq oʻstirish», shuningdek, (kechki soatlardagi koʻngil ocharlada) sinfdan tashqari oʻqishda yaxshi samara beradi.

Bolalar dastlab oʻzlari tinglagan ertaklar yordamida atrof-muhit bilan tashqi olam bilan asta-sekin tanishib boradilar. Har qanday ertak oʻzining soda va ravonligi, taʼsirchan va ifodaliligi bilan bolalar qalbiga yaqin turadi, unda talqin etilgan gʻoyalar bola tomonidan tez oʻzgartiriladi, uning fikr va tasavvurini boyitadi. Ertaklar orqali bolalarda chinakam insoniy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Bola ertakni tinglar ekan, uning gʻoya-mazmunini hayolida taqqoslaydi, fikrlaydi, nima yaxshiyu, nima yomonligini farqlab oladi. Xalq ertaklari kichik maktab yoshidagi bolalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda, ularni axloqiy yetuk, barkamol inson boʻlib yetishishlarida salmoqli oʻrin egallaydi.

Xalq pedagogikasida ahloqiy tarbiyani bola hayotining birinchi yillaridanoq ahloqiy tuygʻu va maʼnaviy xulq-atvor odatlarini shakllantirishni faol maqsadga yoʻnaltirilgan jarayon deb qaraydi. Shuningdek bu jarayon hqida yana koʻp gaʻirish mumkin, masalan, bu jarayon yana shunda koʻzga tashlanadiki, bunda har bir axloqi pok inson oʻzgalarga nisbaton ochiq yuzli boʻladi, muloyimlikni qoʻldan bermaydi, shirin soʻz, u kulib turishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bundan tashqari, odamlar undan nafratlanish oʻrniga unga moyil boʻladi, aʼlo ish bilan, mardligiyu, jasorati bilan yuraklarni rom etadi. Dushmanlarni kamaytirib, doʻstlarni koʻpaytirish bilan barchani oʻziga tortishi ham asosiy fazilatga kiradi. Bola tarbiyasi, axloq-odobi haqida xalq turli ertaklar toʻqigan. Hayotiy ertaklarda ham hayvonlar haqidagi ertaklarda ham, hayoliy ertaklarda ham buni uchratish mumkin. Xalqning muddaosi bitta: sogʻlom, tetik, bardam-baquvvat, yuksak axloqli insonni tarbiyalash.

Xalq pedagogikasini chuqur oʻrganar ekanmiz, mutafakkilarning taʼlim-tarbiyaga doir, odob-axloqqa oid bunday asarlarini koʻzda kechirar ekanmiz, oʻzbek xalqi bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning

eng ta'sirchan uslub-xalq og'zaki ijodining ertak janridan juda oqilona foydalanib kelganligini ko'ramiz.

Shunday ekan, bola axloqi oilada, bog'chada va kichik maktab yoshida shakllanadi. Bu borada ta'kidlab o'tganimizdek, xalq og'zaki ijodini namunalaridan biri bo'lgan ertak asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi orasida ham ertaklar qadim zamonlardan beri yashab keladi. Xalq pedagogikasining muhim qirralaridan biri bo'lgan ertaklar avloddan-avlodga, tildan tilga o'tib va osha xalqning turmushi, urinishi, mehnati, psixologiyasi bilan chuqur sug'orilib, yangi avlodlarga taqdim etiladi. Yana bir ga', ertaklar hech vaqt bekorchi ermak narsalar bo'lmay, ular hamma vaqt zo'r, ijtimoiy va tarxiy ahamiyatga egadir. Maktablarda o'qituvchi tomonidan ertaklar kichkintoylarni insoniylikka, odoblilikka mehr-oqibatli bo'lishga, o'zidan kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishga, mehnatsevarlikka, mardlik va jasoratga, ona vatanga munosib farzand bo'lib yetishishga undaydi. Sinfiy jamiyatda yaratilgan ertaklarda xalqchilik, kurash xilma-xil janrlarda o'zining badiiy ifodasini to'gandir. Xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor, hayotga erishish kabi g'oyalar minglab ertaklarda yorqin obrazlar orqali tasvirlangan. Ertaklar nafaqat yosh avlodni, balki kattalarni ham tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

Ertak umumiy adabiy merosimizning bir qismi ba uni mumtoz asarlardan hech birini ajratish mumkin emas. Ertak faqat o'tmishning merosigina emas, bali u o'zining ijodiy jihatdan yashashni davom ettirayotgan hozirgi kunimizning ham fakti hisoblanadi. Shuning uchun ham ertaklarga xalqning orzu-umidlari va dunyoqarashlari singdirilganligini also unutmasligimiz, undan unumli foydalanish lozim.

Boshlang'ich sinf dasturlaridan o'rin olgan bir qator ertaklar bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lib, ulardan «Odobnoma» mashg'ulotlarida, «Nutq o'stirish» mashg'ulotlarida, ko'ngil ochishlarda,

kechki soatlarda unumli foydalanish mumkin. Ular bolalarda do'stlik, o'rtoqlik, botirlik, insom'arvarlik, mehnatsevarlik singari axloqiy fazilatlrni tarbiyalashga xizmat qiladi, yana bolalar tafakkuri va nutqini rivojlantirish shu ularning umumiy talaffuzini o'ztirish; halol, pok vijdonli inson bo'lib shakllanishda muhim tarbiyaviy rol o'ynaydi.

O'zbek xalq ertaklari ham boshqa qardosh xalqlar ertaklari singari qadimiy, boy va rang-barang syujet va tematikaga ega. Bulrda ham mehnatkash ommaning ijodiy qobiliyati, kuchli fantaziyasi aks ettirilgan, ertak qahramonlari orqali jamiyatdagi hayot, sinfiy kurash, axloq normalari ilgari suriladi. Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deb ataladi. Ertaklar obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kom'ozitsiyasi, fantastik uydirmaning o'rne va funksiyasi hamda tili va uslubiga ko'ra shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy ertaklarga bo'linadi.

«Ertaklar bolalarga hali ular raqam va faktlar tili nimaligini tushunmagan, ha ular «katta» adabiyotni o'qish darjasiga yetmagan chog'larida juda maroqli, xotirada qoladigan, obrazli formalarda axloq asoslarini o'rgatadilar»

Ertaklar faqat bolalarning tarbiyasiga ta'sir ko'rsatib qolmasdan, balki ota-onalarning o'ziga ham, ularning hayot tarziga, qarash ham ishonchlariga, axloqiy qiyofalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham xalq xotirasida saqlanayotgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan eng yahshi ertak va dostonlar maqol va matallar bolalarni tarbiyalaydi, ularni yahshilikka, mehnat qilishga va haqgo'ylikka undaydi.

Boshlang'ich sinflarda bolalarninng tarbiyasida ertaklardan foydalanishning ahamiyati juda katta. Bunday zaruriy va mas'uliyatli ishga ko'ngilda zo'r muhabbat bilan kirishmoq kerak. Ertaklar yosh avlodlar uchun eng samarali hayot maktabidur, chunki keksa avlod vakillari o'z orzu-havaslarini yosh avlodda o'g'il qizlarida ko'rinishni

istaydilar, o'zlari ko'rgan mashaqqatlarni bolalariga ravo ko'rmay, ularni baxtiyor hayot kechirishlarini orzu qiladilar. Shu sababdan ham ertaklar qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi, ertak qahramonlari dushman ustidan g'olib keladi, daryolar ko'zini ochib, sahrolarga suv chiqaradi, tog'lar bahrini yorib, yo'l ochadi, konlar to'adilar.

O'z ertaklari orqali xalq, el-yurtini qorachig'iday avaylab saqlovchi ajoyib vatan'arvar qahramonlarni ulug'laydi; ayollarning haq-huquqini himoya qildi; osmonda uchishni, oyga yetishni orzu qildi; «oynai jahonlar» orqali yer yuzida bo'layotgan voqealarni bilib turdi, uzoqni yaqin qildi; «ochil dasturxon» lari orqali nozu ne'matlar yaratdi; mardlik, e'chilik, dovyuraklik, mahnatsevarlik, halolik, vafodorlik tog'rilik g'oyalarini ilgari suradi, ulug'laydi.

Xalq donishmandligi asosida yaratilgan ertaklar avloddan-avlodga o'tish jaroyonida shakl jihatidan o'zgarishlarga uchrab kelgan bolsada, lekin o'z mazmuni, tarbiyaviy ta'sirini yo'qotmasdan hozirgi va kelgusi avlodlarga xizmat qiladi.

Xalqning ko'p asrlar mobaynida to'plagan, sayqal bergan ijodiyoti durdonalarining tarbiyadagi roli bebahodir, xalq donishmandligi ildizidan bahra olib tarbiya ko'rgan, eng ezgu tilaklari ma'naviy kamolat madaniyatga borib taqaladigan xalqimiz ruhida bu donishmandlikka hurmat bilan kurash, erishish, o'rganish hamisha oldinda bo'lib kelgan. Biz hozirgi va o'tmishdagi yozuvchilar, olimlarning adabiy, tarjimai hollariga nazar tashlar ekanmiz, ularning o'sib kamol to'ishlarida buvi va buvallarining uzoq tunlarda aytib bergan ertaklarning katta hissasi borligini sezib turamiz. Barcha ertaklarda ota yetakchi o'rinda turadi, inson hayotda, uning tarbiyasida ota yetakchi o'rin turadi, inson hayotda, uning tarbiyasida ota pand-nasihat qilgan kishi hech qachon kam bo'lmaydi, ko'zlagan maqsadiga yetadi, murodi hosil bo'ladi.

Buni biz o'zbek xalq ertaklaridan biri «Uch og'a-ini botirlar» misolida yana ravshan ko'rishimiz, o'zimizga yetarli darajada xulosa chiqarishimiz mumkin. O'zbek xalqi bolajon xalq, u serfarzand

bo'libgina qo'lmay, balki bolaning tog'ri tarbiyasiga ham jiddiy e'tibor beradigan xalq. Xalq tarbiyashunosligida, mutafakkirlar donolarning pand-nasihatlarida qarashlarida, ijodiy mahsulotlarida, xalq og'zaki ijodida bola odobi, axloqi yetakchi o'rinda turishi bejiz emas.

Chunki bunday asarlarda o'zbek xalqiga xos bo'lgan ibratomuz tomonlariga keng o'rin berilgan. Ota-onani hurmat qilish, odamlarga mehr-oqibatli bo'lish, dinda e'tiqod, kattalarning o'git-nasihatlariga quloq solish, kamtarlik-kamsuqumlikka intilish, ilm-ma'rifatni qadrlash asosiy o'rinda turadi.

Xalqda shunday bir naql yuradi: haqiqiy komil insan yomon xislatlardan, ma'qul bo'lmagan xulq atvordan pok bo'ladi, go'zal sifat va axloq bilan o'zini orasta qiladi, halol mehnat qilib umr kechiradi, yomonlardan chetlashadi, yaxshilar qatoridan o'ziga munosib joy oladi, hech kimga ozor berilmaydi, el gulzoriga kirib, beruhsat birorta ham gul uzmaydi, kamchiliklarini ko'rsatganlardan minatdaor bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar turli axloqiy tushunchalarga, ya'ni xushmuomalalik, inson'arvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, rostgo'ylik kabi tushunchalarni maktablarda o'rgatiladi. Bu davr bolalarining xotiralari juda taraqqiy etganligini hisobga olsak, beriiayotgan har bir manbaini bola juda tez payqab oladi. Maktab yoshidagi bolalarni qiziq ob'ektiga intiluvchan fiziologik ma'noda harakatchan bo'lishi e'tibor berilsa, berilayotgan materiallarni tez yodlab oladi, ammo voqealarni har doim ham to'g'ri baho berolmaydi. Boshqacha qilib aytganda, bola material ertaklarning ma'no va mazmunini ham to'la tushunib yetavermaydi. Shuning uchun ham o'qituvchilar oldidagi asosiy vazifa har bir o'tilgan mashg'ulatlar material ertaklarni har bir bolaga tushunarli va ayni choqda sodda so'zlar bilan yetkazishni talab etiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar ertaklarni tinglash bilan tafakkur doiralari bir qadar kengayadi, uy o'y hayol surish va shu hayollari yordamida hayotning katta va keng yo'liga chiqib olishni o'rganadilar.

Va shu zaylda ozmi-ko'pmi mustaqil fikrlaydigan, tushuntirib bera olish ko'nikma va malakalariga erisha boradalar ham.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ertak bolaga ko'p narsa beradi, ko'p narsa o'gatadi. Ertakni aytib beruvchi, hikoya qilib beruvchi o'ziga savodxon bo'lishi, har bir asarni qiroat bilan ifodalashga talab etiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar ixcham, eytilishi jihatdan sodda bo'lishidan tashqari, chuqur falsafiy fikrlarni anglatishini so'raladi. Shu sababli ham oson o'rganiladigan bilimni hayotga bog'lab tushunnish ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Bolalarga o'gatiladigan har bir ertakni ularning yoshiga mos holda tanlab olib, bu ertakning hayotdagi o'rnini albatta tushuntirib, bolalarni bu jarayonda o'ynaydigan o'rinlari hamda ishtiroklarini ta'min etish uchun yaxshi zamin hozirlaydi va ko'zlagan maqsadga erishishlari mumkin, deb hisoblashga olib keladi.

Ertaklar asosida kichik maktab yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda olib boriladigan muzassam mashg'ulotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi mashg'ulotlar davomida bolalarga insoniy fazilatlar umumlashgan xalq ertaklaridan foydalanishga harakat qiladi. Bu esa hozirgi zamon talabi hisoblanadi.

Insonlarnig eng oliyjanob fazilatlaridan biri – hayotda halol yashash, yangi halol mehnat qilish, peshona teri to'kib, halol pul to'ish, el – ulus o'rtasida lafzini halol tutish, oilada halol bo'lsh, farzandlarini halollikka o'rgatishdan iboratdir. Halol mexnatdan bir so'mning qut-barakasi xaromdan keladigan ming, million so'mdan ortiq sanaladi.

Halolik nima? Bu kishilarning mol-mulkiga ola qaramaslik, birovlarining to'gan halol molini o'g'irlamaslik, davlat va jamoat mulkini halol asrash, pora olmaslik, birni mingga pullab, tekin daromad ketidan quvmaslik, o'zining g'ayratu shijoati bilan to'gan, ozgina bo'lsa ham halol puliga qanoat qilish, sabr-toqatli bo'lish, to'ganiga shukronalar aytishdir.

Qadimda yaxshi odat bor ekan. Yo'lda ketayotgan odam kimningdir tushirib qoldirilgan pulini, u bir so'mmi, ming so'mmi, qat'iy nazar, erdan, terdan olib, «Kimniki bu?» deya uch marta so'rarkan. Hech kimdan sado chiqmasa, egasi qidirib kelsa, to'ib olar, degan andisha bilan panaroq joygami, daraxt butasigami qo'yib ketar ekan. U pulni hech kim olmaganini bilsa, darhol uni olib, qozixonaga yoki matchitga to'shirar ekan, chunki pul yo'qotgan odam yo qozixonaga, yo matchitga borib surishtirishi odat tusiga kirgan ekan.

Bizlarning ajdodlarimiz ana shunday halolu pok, kishi haqidan hazar qiluvchi, vijdonlari halollik bilan yo'g'rilgan kishilar bo'lgan. Ular bu odatlarni o'z farzandlari, nabiralari, yon-atrofdagi yosh-yalanglarga ham ustalik bilan singdira olganlarki, yaqin-yaqinlargacha bu udum saqlanib kelgan

Ilgari bizda eshik qulf solish, narsalarni ehtiyot qilib, panada saqlash kabi odatlar bo'lmagan. Bunday xatti-harakatlar qo'ni-qo'shnilarga ishonchsizlik, odamlarga nisbatan haqorat bo'lib tuyulgan, hamma narsa ochiq-sochiq yotgani bilan birov birovning mol-mulki u yoqda tursin, hatto xasiga ham ko'z olytirmagan. Chunki so'roqsiz olingan narsaning uvolidan qo'rqish bilan birga o'sha o'g'irlangan bir so'm ming so'mni yetaklab chiqib ketishini ular yaxshi bilishgan.

Birovning moli boshqa birovga vafo qilmaligini, xarom mol ikki duyoda kishiga hazm bo'lmasligini, o'z manfati, foydasini ko'zlab, o'zgani qaqshatishdan ortiq gunohi azim yo'qligini dillariga mahkam joylab olgan sofdilu pokiza vijdonli kishilar yaxshi tushunganlar va bunga qattiq amal qilganlar.

Machitlarda, xonaqohlarda, bozor va choyxonalarda tez-tez jamoa yig'ilishlarda bo'lib, bu haqida ko'ni ko'gan keksalar, ilmi bor kishilar, imomu muftiylar halol va xaromning foydali-zararli tomonlarini xalqqa sidqidildan tushuntirganlar. Bundan ogoh bo'lgan kishilar o'z mahallalarida, o'z xonadonlarida oila a'zolari, xususan, yoshlar qulog'iga quyib turganlar. Shu so'zlarni xalqqa yetkazgan kishilarning o'zlari shu

qadar pokiza pok vijdon, o'z so'zlariga sobit bo'lganlarki, ularning og'izlaridan chiqqan har bir so'z fuqarolar tomonidan muqaddas qonun sifatida qabul qilingan va uni bekamu ko'st bajarishga o'zlarini vazifador deb bilganlar.

Muhammad alayhissalom hadisi shariflarida naql qilinibdiki, musulmon bo'lishning eng oily shartlaridan biri halollik, halolli va yana halollikdir. Ajdodlarimizning necha asrlarosha bizgacha yetib kelgan chin odamiylik xislatlari, fazlu kamollaridan bizlar imkoni boricha to'g'ri foydalansak va uni farzandlarimiz qalbiga joy qila olsak, farzandlar ham o'z bolalariga shu aqidani singdirib borishlari kerak. Halollik bor joyda ezgulik, farovonlik doimo muhayyo. Tinch, farovon, hadiksiz va qo'rquvsiz yashamoqning onasi eng avvalo halollik, poklik, boriga shukronalar, yo'g'iga sabr qanoatdir. Shoir Muhtor Tojiboyev shunday yozadi:

Ahboblar, el aro bo'lmay desang xijolat,
Xoh kattasan, xoh kichik, borishingga qil qanoat.
Nafsing quyiga sakrab, hurmatni berma qo'ldan,
Dunyo moli to'ilgay, bo'lsa boshing salomat.

«Taron» to'plamidan.

Xadis sharifda yana qayd qilinishicha, xarom ishga qo'l urgan kishi tongla maxsharda do'zzax azobini tortishi muqarrar. Qilgan kufiyona ishlarimni inkor qilsam, «yo'qlik qozon yo'qligicha qoladi» deb o'ylaganlar katta xatoga yo'l qo'yadilar. Qilingan xarom ishlar hech oshkor bo'lmay qolmaydi.

Modomiki, shunday ekan, inson o'zining ulug'vor nomini, insoniy fazilatlarini bir lahza bo'lsa unutmay, xaromdan hazar qilib, allohu taolo va yaratgan insonlar oldida halolu pok yashashga vazifadordir. Chinakam odam uchun bu ham qarzu, ham sunnt. Ezgulik ham, yovuzlik ham bir kuni kelib el ichida o'zini namoyon qilishini, xususan, ahli musulmon

hech qachon unutmay, doimo yodida saqlashi kerak, chunki bu kelajak kamolaoti uchun zarur, ma'qul va maqbul ishdir.

Farzandlarimizni yoshligidan boshlab halollika o'rgatish ota-onalarning roli juda katta. Ozmi-ko'pmi o'z peshona teri evaziga to'gan mablag'iga qanoat qilib yashagan xonadonda voyaga yetayotgan farzandlar hech qachon yomon yo'lga kirib ketmaydilar. Oiladagi tarbiyaning asoschisi-uy bekasi hushyor, qattiqqo'l bo'lib, bolasining har qilgan hatti-harakatini kuzatib, bosgan qadamidan bohabar bo'lib, birovning bitta o'yinchog'ini ham so'ramay olib kelishga yo'l qo'ymasa, o'z vaqtida uning bu ishiga barham bersa, osha bola ikkinchi marta boshqalarning narsasiga ko'z olaytirmaydigan bo'ladi.

Kamtarli odobli, manmanlik esa odbsiz kishilarga xos hislatdir. Kamtarlik inson qiyofasini bezovchi bebaho fazilatdir.

Kamtarni kishi deganda o'zini boshqalardan ustun quymaydigan, o'zining odobli, aql-zakovati, ilm-fan va mexnatidagi yutuqlari bilan mag'rurlanmaydigan, katta-kichikni doimo xurmat qilinadigan, odamlarga nisbatan mehribon, g'amxo'r, xushmuomala, xushfe'l; kishilar bilan munosabda bo'lganda har doim o'zini oddiy tutib, shunu shuxratga berilmaydigan insonlar tushuniladi.

Mutafakkir shoir, kamtarin inson Alisher Navoiy o'zining «Farxod va Shirin» dostonida Farxodni o'zi kabi kamtarni inson timsolida tasvirlaydi. Farxodni otasining davlati qiziqtirmaydi. U o'zini oddiy insonlardan biri, deb hisoblaydi va mazmun xalqni chin ko'ngildan sevadi.

Kamtarin shaxzoda Farxod mazlumlarning dardiga malham bo'lishga intilar, xalqning manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yar edi. Shuning uchun ham xalq Farxodni sevadi, uning dard-alamidan alam chekadi, shodligi bilan quvonadi. Chin xoqoni xursand qilish uchun yaj-taxtini taklif qilganda, Farxod kamtarin bolganligi uchun shuncha ilm na hunar egasi bo'lishiga qaramay, taxtni idora etish uchun hali o'zini yetarli tajriba va malakaga ega emasman, deb hisoblaydi.

Kamtarlik-har bir kishining axloq va odobida, tarbiyasida o'z ifodasini to'adi. Kamtar kishi har doim o'ziga nisbatan tanqidiy fikr, talabchanlik bo'lishi lozim. Kamtar kishi boshqalardan ajralib turishni yomon ko'radi va o'ziga xech qachon aohida izzat-hurmat talab qilmaydi.

Buyuk mutafakkir xazrati Alisher Navoiy nihoyatda kamtarin inson edi. U qancha ko'p bilsa, ko'p narsalar ijod qilsa, vazir bo'lsa ham kamtarlik qilar edi. Shuning uchun ham insonlar haqida ko'p qayg'urar, o'z shaxsiy manfaatidan o'zgalar manfaatini ustun qo'yib, boshqalar ham insonlar g'amini yeyishga undar edi:

Odam ersang demagil odam

Oniki yo'q xalq g'amidan g'ami, - deb

Doimo el-yurt g'amini o'ylar edi. A. navoiy shoir, davlat arbobi bo'lishiga qaramay, oldiga arz bilan kishilar arzini tinglashga har doim vaqt to'ar, qabul qilar, ularga kamtarlik, shu bilan birga donolik bilan yo'l-yo'riq ko'rsatar edi. Xuzuriga kelgan kishini o'rnidan turib, yoqimli tabassum bilan kutib olib, salomlashgach, tezda unga o'tirishi uchun joy ko'rsatar, o'zi esa uning qarshisiga muloyimlik bilan o'tirib, so'zini diqqat bilan tinglar edi. Ular bilan suhbatlashanda, adolatli hukm chiqrganda, maslahat berganda Alesher Navoiy davlat arbobigina emas, insonlarning do'sti, mehribon ustozidek tuyular edi.

Alsher Navoiy nihoyatda kamtarin, mehribonliligi, e'tiborliligi xislatini faqatgina insonlargagina emas, xattoki qurt-qumursqalar, parranda, jonzotlardan ham darig' tutmas edi.

Alesher Navoiy bilan Sulton Husayin ovga chiqishganda Alesher Navoiy bir joyga chodir qurib isteqomat qiladi. Ov tugagach, cho'ar kelib endi bu yerdan uyga ketish kerakligini bayon etgandi. Navoiy, chodir te'asida musicha yuhum qo'yim, bola ochayotganligini cho'arga ko'rsatib, musicha bola ochib bo'lgunicha bir kishining shu yerda qolishi lozimligini aytadi shunda cho'ar: «Qanotli parranda uchadur ketadi, - desa Alesher Navoiy: «Musichaning tuxumiga ham qanot bog'laydursiz-mu?!», -

deb o'zining nihoyatda kamsuhan, kamtarin, mehribon inson ekanligini namoyon etadi.

Hayotimizda ba'zi kishilar kamtarlik hislatini kamchilik deb tushunadilar yoki ayb hisoblaydilar. Ular «Yaxshi ish yoki yaxshi xatti-harakatlar yaqqol bilinib, ko'rinib turishi kerak. Kimda-kim o'zining qilayotgan yaxshi ishlarini o'zgalarga bildirmasdan yursa, u o'zini baholay olmaydi, o'z qadr-qiymatini pastga uradi», deydilar. Ana shunday no'g'ri qarashlardan kamtarlik emas, aksincha manmanlik, gerdayish, ta'magarlik, maqtanchoqlik, kalondimog'lik kelib chiqadi.

El-yurtga, xalqqa yaxshilik qilish ezgu ish bo'lgani holda, qilingan yaxshilikni hammaga aytib, ba'zan minnat qilish yomon. Holbuki hayotda mana shunday odamlar bor.

Ba'zilar biror amalga «minib» olishlari bilannoq darxol «boshqa odamga» aylanib o'zgarib qoladilar. O'zlarini baland tutib, maqtanishni yaxshi ko'radilar, boshqalardan nuqson qidiradilar, tirnoq orasidan kir axtarib, yonidagilardan shubhalanishadi. Ular «o'zin-bo'laychilik» kasali tobora tomir ota boradi, oqibatda buday odamda avvalgi yaxshi xislatlar o'rinini yomon xislat egallaydi.

Ko'pgina mansabdor shaxslar boshqalar qabuliga kelganda kishilar arzini o'z vaqtida tinglamaydilar, ularga adolatlilik, mehribonlik munosabatlarini ko'rsatmay, manmanlik, mansab'arastlik tuyg'ularini namoyon etadilar va oxirida o'z qilmishlari tufayli zavol ko'radilar, el-yurt, kishilar qarg'ishiga qoladilar.

Malumki, bobokalonimiz hazrati Navoiyning ustози Abduraxmon Jomiy ham hayotda juda ham kamtar bo'lgan. U garchi shoirlik va ilm-fani egallashda ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa ham, o'z yutuqlari bilan maqtanmas va boshqalar oldida juda kamtar bo'lishga harakat qilar edi. Shuning uchun ham ul zot gerdaygan, manmansiragan, takabbur inson o' qilgan ishlari, xizmatlari bilan mag'rurlanmzsligi, balki hokisorlikni o'ziga kasb qilib olishi lozim edi. Kamtarin inson A. Jomiy o'z farzandiga nasihat qilibdur:

«Takabburlik ziyondur, undan andisha qilg'il,
Muloyim bo'l odamga kamtarlik pasha qilg'il
Ko'rdingmi u boshqni, bosh ko'tardi ne bo'ldi,
O'rtoqning zarbi bilan yerga yiqildi, so'ldi.
Ko'rdingmi don o'zini, tu'roqqa tashlar kamtar,
Uni avaylab yerdan ko'targusidir qushlar.
Kimni kamtarlik aylar, u der ulug'likka hos,
Egilgan boshini har kim ulug'laydi beqiyos.»

Insonning eng yuksak fazilati bo'lgan kamtarlik e'zozlansa, takabburlik, manmanlikni pastkashlik deb hisoblaydi. Chunki, takabbur, manmansiragan kishilar kibu haxoga berilib, o'zgani pisand qilmaslik, birovlarini tahqiirlash, beva-bechoralarni mensimaslik, badavlat boy kishilar oldida esa ikki bukilib ta'zim etib, xushmadgo'ylik qilish qoralanadi. Kamtarin oam birovlar yaxshi axloqning boshlang'ichi hisoblanadi va kishini xurmatsizlikdan va kamsitilishdan saqlaydi, xalq orasida uni obro'-e'tiborli, izzat-xurmatli qiladi. Adab va tavoze kishilar o'rtasida muxabbatning mustaxamlashining do'silning ravnaq to'ishiga olib keladi. Adiblikning afzaligi to'g'risida donolar aytadilar;

«...adab kichik yoshlilarni ulig'lar duosiga sazovor etar va ul duo barakati bilan umridin barxurdir. Kichiklar mehrini ulug'lar ko'ngliga soldi va ul muxabbat ko'ngilda muabbat qolur»

O'ziga berilganlik, manmanlik va takabburlik juda yomon oqibatlariga olib keladi. «...Eng avvalo, tabbakur, manmansiragan kishilarning butun hatiharakatlari, qilgan ishlari,ga'irgan ga'lariri o'ziga yaxshidek tuyuladi. Undan tashqari, bunday kishi o'zini har xil hayollarini o'ziga maqul deb to'adila. Xullas, Navoiyning aytishicha ko'ra, gerdaygan, manman odam o'zinidono, hamma narsani biluvchan, so'zga chechan, boshqalarga nisbatan aqlli deb o'ylaydi. Aslida esa bunday kishilar tuban, axloqsiz, har qanday muttahaam va qabih shaxslar bo'lib, boshqa kishilarning nasihati oldida «izza» qilishga urinadilar.

Kamtar kishilar o'z kuch-quvvatlari, aql-zakovatlari, qaynoq qalblari o'z uchun bag'ishlaydilar. Lekin, buning evaziga hech qanday mukofat so'ramaydilar, o'z ishlari, xizmatlarini minnat qilmaydilar. Ular buni o'zlari uchun baxt deb biladilar.

Kamtarinlik to'g'risida sevimli adibimiz, O'zbekiston xalq shoiri Erkin vohidov shunday deydi:

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibru havo nimaga kerak?
Kamtarin bo'l hatto qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
piyolani inson shuning-chun
O'Par doim peshonasidan.

Shoir kamtarin insonni hamma peshonasidan o'puvchi, barcha uchun kerak bo'ladigan, hammani hojatini chiqaruvchi piyolaga o'xshatadi. Shoir aytganidek kamtarin insonni el-yurt sevadi, ardoqlaydi.

Kamtarinlik inson ichki ma'naviy dunyosining tashqi ifodasi hisoblanadi. Kamtarin kishi garchi, aqlli, bilimdon, odoli bo'lsa ham shuxrat'arast, kibru havoli, manman, maqtanchiq va laganbardor, ikkiyuzlamachi bo'lmaydi. Shuning uchun ham xalqimiz daraxtning mevasi qanchalik ko'p bo'lsa, shoxlari shunchalik egilgan bo'ladi, deydi.

Kamtar kishi kelajakka ishonch. Bajargan ishlari, xizmatlari har qancha maqtovga loyiq bo'lsa-da, bu haqda hech kimga ga'irmaydi. Chunki, bunday kishilar o'z burchi, vazifasini vijdonan bajaradilar. Shu bilan birga undagi ayrim nuqsonlarni yanada yaxshilroq bajarish mumkinligini tushunib, kelajakda yana qanday ishlar qilishi mumkinligi haqida fikr-mulohaza yuritadilar. Kamtarin kishilar maqtanishi, manmanlik qilishi, vaqtini bekorga ketkazishni istamaydi. Ana shunday kamtarin insonlar xizmatlari va

mehnatlarini aqlli, zukko, tadbirlar, ishbilarmon kishilar sezadilar va qadr-qiyimmat qiladilar.

Kamtar kishining ruhiyatida hayo hukmron bo'ladi. Ana shu sharmu hayo uning ishlari unumlik beradi. Kamolotga yetkazadi, el-yurt, xalq orasida hyrmat-exriromga sazovor etadi.

Manman odam esa arzir-arzimas ishni oxiriga yetkazmasdanoq, u hqada tezroq hammaga ovoza qiladi, shov-shuv ko'taradi. O'zining hovliqmasligi uchun qilayotgan ishini yuragiga sig'dirolmaydi. Hayol'arastligidan tasavvuridagi hali bitmagan ishining natijasini o'zi hammaga bildiradi. O'zi o'ylaganidek, ishlari yaxshi bo'lsa xo'p-xo'p, bitmasa-chi?! Subutsiz, yolg'onchi, maqtanchoq degan nomga ega bo'lib qoladi. Bu hol ba'zan avloddan-avlodga o'tadi.shuning uchun ham «Sut bilan kirgan yomon qiliq, jon bilan chiqar», - deyiladi.

Shunindek, bobokalon shoir Yusuf Xos Xojib o'zining bundan 921 - yil oldin – 1069 - yilda yozgan ta'lim-tarbiyaga oid «Qutadg'u bilig» asarida: «podsho Kuntug'di dono yigit Oyto'ldidan, qanday fazilatli kishilar baxt-saodatga va davlatga erisha oladilar», deb so'raganda dono yigit: «Kishilat g'ururlanmasa, gerdayib kishilarni oyoq osti qilmasa, o'zidan kichiklarga mensimay qaramasa, fe'l-atvorni to'grilikda tutsa, kamtarin bo'lsa, isrofgarchilikdan uzoqroq bo'lsalar baxt-saodatli bo'lishlarini, kamol to'ishlari» qayd etadi.

Xalqimiz «Kamtarga kamol, manmanga zavol» deydi. Bu – kamtar kishi kamol to'adi, manman kishi zavol to'adi, kishi qancha kamatar bo'lsa, el-yurt oldida obro'si ortadi, kishi qancha manmansirab, o'zini boshqalardan yuqori qo'ysa, u shuncha xalq e'tiboridan chetda qolib, obro'-e'tibor, hurmat to'may zavol ko'radi, deganidir.

Dono xalqimiz « Kishilarga g'urur, o'ziga erur» deydi. Shuning uchun Hm kamtarin kishi hech qachon o'zini mag'rur tutmaydi. Kamtarinlik xislatlaridan mahrum bo'lgan, beandisha kishilargina o'zlarini ustun qo'yadilar, xalqdan o'rganish o'rniga, ularga o'rgatmoqchi bo'ladilar. Bunday kishilar hayotda kamol to'may, zavol ko'radilar. Insonlardagi

kamtarlik xislatlari ota-ona va ustoz-murabbiy orqai keng namoyon bo'ladi. Bularni shogird ustozdan, ota-onadan, murabbiydan o'rganishi, o'rnak olishi lozim.«Iskandar bir bilimdan kishini sharaflig va baland amalidan bekor qilib, past bir ishga tayinlaydi. Bir kuni u Iskandar huzuriga kelganda:

- Qalay, yangi amaling yoqdimi? – deb so'radi shox, podshoxning umriga uzoq bo'lsin – dedi ul kishi, - odam amali bilan sharaflig emas, amal inson bilan sharaflig ega bo'ladi.Manmanlik – zaiflikdir. Ba'zi kishilar faqat o'zlarini o'ylaydilar, ,aqtaydilar, ular xushomadgo'y odamlarnigina yoqtiradi. Bu kasalga chalingan kishi, o'zgalar qadr-qiymati va bajaradigan mehnatini oqilona baholay olmaydi. Shuhrat'arastlik, amal'arastlik ham xalq uchun yot illat. Ma'lumki, shuxrat va obro' o'z- o'zidan kelmaydi. U hamma yerda halol va sadoqatli mehnat natijasida shakllanadi. Manman kishi shuxrat'arast bo'ladi. Buyuk matafakkir Alesher Navoiy Astrobodga xokim qilib yuborilganga ham u o'z yurtidan, e;lidan, qolaversa do'sti Husayn Boyqarodan ko'ngil uzmasdan xalqni dedi, maenga emas xalqimga bo'lsin dedi. Xalq uchun xizmat qiladi. Navoiy o'limi oldidan, xalqim uchun o'ylagan narsalarimni ba'zilarini bajardim, lekin qilingan ishlar uchun el-yurtdan qarzdaor bo'lib ketmoqdaman, deydi. Demk, kamtarin insonlar nimani qilgan bo'lsalar xalq uchun qilinganlar. Shu bois xalq A. Jomiy, A. Navoiydek ulug' zotlarni doimo e'zozlaydi va yod etadi.Shuning uchun zukko xalqimiz kamtarga kamol manmanga zavol, deydi. Ayrim yoshlarimizning manmanligi, dasturxonimizning to'kin-sochinligi, el-yurtimizning to'qligi, yengil-yel'i, mexnatsiz boylik orttirish, boylikka hirs qo'yishdan kelib chiqqan bo'lsa ajab emas. Ammo, ko'pgina yoshlarimiz o'z odobi, axloqi, tarbiyasoi, xalol mehnati, rostgo'yligi, to'griligi, kamtariligi bilan barchaga o'rnak bo'lmoqdadir. Kamtarin, mehnatsevar inson Shuxrat Abdullayev o'zining olijanob insoniy xislatlari tufayli martabasi ulug' bo'lib, kamolotga erishib, baxt-saodatda yashamoqda. U hozir O'zbekiston Xalq ta'linmi vazirligi Res'ublika o'quv-metodika markazida yetuk mutaxasis bo'lib ishlamoqda.

Uning aqlu zakovati, kamtarinlik, mehnatsevarligidan res'ublika o'qituvchilari bahramand bo'lmoqdalar.

I.2. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning o'rni.

Ta'lim-tarbiya berish jarayonida xalq og'zaki ijodidan foydalanish juda samarali o'rin egallaydi. Xalq poetik ijodini o'rganish, ayniqsa ijtimoiy fanlar yuzasidan olib boriladi ka tarixini o'rganish uchun ham g'oyat muhim ahamiyatga ega. CHunki " Xalq pedagogikasi asta-sekin xalq ommasi ichida tarkib to'a boradi va xalq ijodining to'ishmoq, matal, maqol, rivoyat, ertak, doston va qo'shiq kabi yodgorliklarida aks etiriladi ". Xalq ommasining turmush faoliyat jaroyonida to'plangan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlar yig'indisi xalq pedagogikasining mazmuni ifodalaydi. Ya'ni xalq pedagogikasi – mehnatkash xalq va xalq donishmandlarining xamon yoshlarini kutilgan maqsadga muvofiq kishilar qilib yetishtiradigan tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo'lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish bobida qo'llanib kelingan usul vosita, ko'nikma va malakalar birligi ifodalovchi tajribalar asosida to'plangan bilim va ma'lumotlar yig'indisidir. Boshqacha qilib aytganda, xalq ommasining og'zaki tarzda yaratgan avladdan avlodga o'tib kelayotgan tarbiya haqidagi ma'lumotlar – pedagogik ijodlari yig'indisidir.

Badiy adabiyotda bo'lganidek, folg'klor asarlari ham tuzilishi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra, o'zaro o'xshash hamda farqli tomonlarga ega bo'lib, muayan guruxlarni tashkil etadi. O'zbek folg'klori asarlari, avvalo ikki katta guruhga bo'linadi :

- 1.Urf – odat va marosimlar bilan bog'liq asarlar.
- 2.Turli urf – odat va marosimlar bilan bog'liq bo'lmagan janrlari.

Birinchi guruhga: a) mehnat qo'shiqlari;b) mavsum qo'shiqlari; v) marosim qo'shiqlari; g) olqish, afsun va qarg'ishlar; d) aytimlar kiradi.

Ikkinchi guruhga: e'ik , lirik, dramatik va kichik janrlarni o'z ichiga oladi. Har bir janr o'z navbatida yana ichki turlarga bo'linadi.

SHu nuqtai nazardan o'zbek folg'klorlari va uning janrlariga yaxlit qarar ekanmiz, unda butun bir xalqning taqdiri, shu xalq mansub Vatanning go'zalliklari tasvirlanganligiga, tinchlik va farovonlik uchun kurash, Vatan tu'rog'ini ko'z qorachig'idek asrash g'oyalari, bu yo'lda mardlik ko'rsatgan qahramonlar kuylanganligiga qanoat hosil qilamiz.

Rivoyat hayotiy foqelarni badiiy uydirmalar vositasida hikoya qiluvchi realistik xarakterdagi og'zaki ijod turlaridan bo'lib, g'oyaviy – tematik jihatdan rang- barangdir. Rivoyatlar tarixiy voqealar va ayrim shaxslar bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni, ijtimoiy hayot va turmush, geografik joylar – sahro, ko'l, cho'l, dengiz, shaxar, qishloq, saroy va boshqalarning bar'o bo'lishi hamda vayron qilinishi haqida hikoya qilishi mumkin.

Folg'klorning “ rivoyat ” janri folg'klorshunos M.Afzalov , B.Karimov , M.Alaviya , X.Zari'ov , Z.Mirtursunov , G'.Jahongirov , B.Sarimsoqov va boshqa folg'klorshunos olimlarimiz tomonidan keng talqin qilingan, monogrofiyalar , doktorlik dissertasiyalar tadqiq etilgan. pedagog olimlarimizdan R.Mavlonova, M.Inomova , O.Musurmonova , A.Ortiqov , M.Xaydarov , A.Teshaboev , M.Jumaboev, X.Sanoqulov singari olimlarimiz tomonidan , pedagogik nuqtai nazar tomonidan yoritilgan.

Lekin yuqorida zikr etilgan folg'klorshunos va pedagog olimlarimizning tadqiqotlarida xalq pedagogikasining ayrim qirralari yoritilganligini ko'ramiz. Tarbiya kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan boshlandi va rivojlanib bordi. Bola tug'ilishi bilanoq ota-onaning parvarishi orqali atrof-muhit bilan tanishadi. Turmush faoliyati boshlanishi Bilan ishlab chiqarish tajriba va malakalarini o'zlashtiradi, shu jarayonda unda aqliy va jismoniy kamolot, madaniyat, axloq va estetik qarashlar shakllanadi.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odati va an'analari, tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi xalq pedagogikasida mujassamlashgandir.

Xalq pedagogikasiga xos xususiyatlar inson'arvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, o'zaro hamdardlik, ochiq ko'ngillilik, do'stlik, o'zaro hamdardlik, ochiq ko'ngillilik, saxovatlik, poklik, to'g'ri so'zlik, haqiqatgo'ylik, yaxshi qo'shnichilik, tinchliksevarlik, vatan'arvarlik, baynalmilallik kabi fazilatlardan iborat bo'lib, bu fazilatlar tarixiy, ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi va umumbashariy xususiyat kasb etadi. Xalq pedagogikasidagi ilg'or g'oyalar – yosh avlodni aqliy va jismoniy jihatdan yetuk, ma'rifatli, bilim va hunarlarni egallagan, odob-axloq qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan, go'zal didli va zavqli qilib yetishtirishdir.

Xalq pedagogikasi urf-odat, an'ana va qadriyatlari bir avloddan kelgusi avlodga og'zaki tarzda o'tadi, so'ngra og'zaki ijod va yozma adabiyotlar vositasida ommalashadi. SHu sababli ham, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotlar asrlar davomida o'zbek pedagogikasining yagona tarbiya vositasi bo'lib kelmoqda.

O'zbek xalqining og'zaki ijodi xilma-xil mavzu va janrlardagi asarlarga – maqol, to'tshishmoq, ertak, latifa, qo'shiq, la'ar, askiya va dostonlarga boy. Bular o'zbek xalq pedagogikasining asosini tashkil etadi. CHunki ular o'z muxtasarligi, qiziqarliligi, rovonliligi, ohangdorligi, pandnomaligi (didaktikligi), g'oyaviyligi bilan g'oyatda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Asrlar davomida yaratib kelingan xalq og'zaki ijodi namunalarida har bir jamiyatda yashagan xalq ruhi: do'stlik, birodorlik, mardlik vatan va xalqqa sodiqlik g'oyalari ifodalangan, ulug'langan: Ota-onaning o'zaro ahilligi, ular bilan farzandning o'zaro mehr muhabbati, qadr-qimmatini, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarannumi qilingan.

Ma'lumki, har bir xalq pedagogikasi boshqa xalqlar pedagogikasi bilan bog'liq holda yaratilgan. SHu sababli ham ularning ijtimoiy siyosiy va madaniy hayotlari, tarixiy taqdiratlari ifodalangan urf-odatlarida, an'analari o'xshashlik mavjud. Bu o'xshashlik ularning mehnat va nafosat tarbiyasida aqliy va axloqiy tarbiya usullarida yorqin ko'rinadi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixiy etnografik jihatdan yaqin aloqada bo'lganlar. Etnografik pedagogika ilmiy pedagogikaning uzviy qism sifatida

bir xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odatlari, an'alariga xos xususiyatlarining majmuidir. U o'z vazifasiga ko'ra har bir xalqning bola tarbiyasi haqidagi fikri va tajribalarini o'rganadi. Ilk ibtidoiy jamiyatda urf-odatlar kishilarning mehnati zaminida vujudga kelgan va jamiyat rivojiga, kishilar ongining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Kishilar o'z mehnatlari, hatti-harakatlarini urf-odat va an'alar orqali davom ettirganlar. Bu holat ularning mehnat malakalarining o'sishiga jiddiy ta'sir etgan, ularda kuchli his hayajon uyg'otgan. Har bir kishi urf-odatlar orqali jamoa bilan uzviy bog'langan, jamoaning ijtimoiy vazifalarini, axloqiy qonun-qoidalarini orzularini o'rgangan, anglagan. SHu bois urf-odat va an'ana har bir inson hissiyotiga, hatti-harakatiga kuchli ta'sir qiluvchi hodisa bo'lgan. Urf-odat va an'ana insonda xilma-xil kechinmalar va kayfiyatlar uyg'otar ekan, odamning o'z-o'zini va ijtimoiy burchini anglashiga, shaxs sifatida shakllanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Urf-odat kishilarning ishlab chiqarishdan tashqarida ko'rsatgan faoliyatini o'z ichiga oladi. SHunga ko'ra, u ijtimoiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi. An'ana kishilarning mustahkam qaror qaror to'gan urf-odatlari, didlari, xulq-atvor va ijtimoiy munosabat qoidalari yig'indisidir. Marosim esa an'ananing ta'sirchan, amaliy va tantanali qismi, an'anaviy tus olgan harakatlar yig'indisidir. U jamoa, oila, shaxs hayotidagi muhim voqealarga bag'ishlab o'tkaziladi. Masalan, avloddan avlodga meros sifatida o'tib kelayotgan, zamon talabi asosida saqlanib, yangicha mazmun kasb etib kelayotgan marosimlar bayramlar deb ataladi.

O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida milliy xususiyati, yashash joyiga ko'ra, urf-odatlari va an'alari, dunyoqarashi, ruhiyati va orzulari mujassamlashtirilgan iqtisodiy va ma'naviy madaniyatini yaratdi. U yaratgan maddaniy boyliklar, yodgorliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat kildi. CHunonchi, Ismoil al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, Abu Nasr farobiy, Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Abu Rayxon al-Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sa'diy, SHeroziy, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjavii, Fariddin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va

boshqa allomalar o'z asarlarida axloq, odob, nafosat, mehnatsevarlik, vatan'arvarlik, xalq'arvarlik g'oyalarini bayon etishda xalq pedagogikasidan samarali foydalanadilar.

Urf-odat, an'ana va marosimlarning milliyligi baynalmilalchilik bilan uzviy bog'liqdir. Har bir xalqning madaniy an'analari o'z milliyligini saqlagan holda boshqa an'analardan aloqada bo'ladi. Har bir xalq o'z tarixi davomida xalqlardan u yoki bu an'analarni o'zlashtiradi. Masalan, o'zbek xalqi bilan tojik, turkman, qozoq xalqlarining o'yini, qo'shig'i, musiqasi, libosi, to'y marosimlari, mehmon kutishi va kuzatishi kabi urf-odatlarida o'xshashlik borki, bu o'zaro yaqinlik, totuvlik va hamkorlik natijasidir. Ammo bundan qat'i nazar, o'zbek xalqining milliy pedagogik madaniyatida o'ziga xos xususiyatlar, o'ziga xos turmush tarzi, qadriyatlar mavjud, albatta. Ularni o'rganish orqali o'quvchilar milliy madaniy fazilatlar-tavoze, sadoqat, marhamat, shafqat, ha1, muruvvat, vafo ko'rkam xulqli, odamlarda mujassamlanishi, vafo ko'rkam xulqli odamlarda mujassamlanishi, hirs, baxillik, takabburlik, adovat, ig'vo, hasad, munofiqlik, xiyonat, chaqimchilik kabi yaramas xislatlar esa yovuz xulqli kishilarda bo'lishini bilib oladilar.

“Qur'on” insonlarni ilmda, madaniyatda, odob-axloqda barkamol bo'lishiga, dindan, irqdan qat'i nazar, ittifoq bo'lib, tinch-totuv yashashga da'vat etadi. U SHarq va jamiyat taraqqiyoti va xalq faravonligi yuksalishining asosiy negizi bo'lib, uni barkamollik sari yo'llaydi, bundan keyin ham yo'llaydi.

Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» asaridagi 110-hadisda mushkul ahvolga tushgan kishiga yordam berish haqida shunday deyiladi: “Bir qancha qo'shinlar qiyomat kuni o'z qo'shinlarining etagidan ushlab: “Yo rabbi! Manna bu qo'shnim boshimga ish tushgan vaqtda yordam qilish o'rniga eshigini qulflab olgan edi, deb da'vo qiladi” 111-hadisda deyiladiki: “Kim o'zining qorni to'q bo'lib, qo'shnisi och holida o'tirgan bo'lsa, u kishi mumin emasdir”. Demak, har bir qo'shni og'ir ahvolda qolgan qo'shnisiga o'z ovqatidan bo'lib berishi lozim.

Yuqorida keltirilgan hadis butun insoniyat uchun barkamollik, insoniylik rag'zi bo'ldi. Ushbu mo'ptabar kitob kishilarni, xususan, yosh avlodni ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashdek muhim beqiyos ahamiyat kasb etdi, unda ifrodalangan aqidalar xalqning e'tiqodiga aylandi, oilaning mustahkamlanishiga. Bolalarda ixlos, imon, diyonat xislatlarini tarbiyalashga xizmat qildi, qilmoqda.

O'rta Osiyoda yashab ijod etgan ulug' mutafakkir shoir, olimlar Hadisdagi ko'pgina aqida, pand-nasihatlarini o'z asarlarida badiiy ifodaladilar. Buni biz Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Rag'busiy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Xojib, Al-Xorazmiy kabi allomalar ijodida ravshan ko'ramiz.

Amir Temur va uning hukmdorlik qilgan 14-15 asrlarda mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy hayotida qayta tiklanish va rivojlanish boshlanishi Bilan ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, noqqoshlik, musiqa sohasida, badiiy adabiyotida juda katta yutuqlarga erishildi, xalq og'zaki ijodi rivojlandi.

Bu davrda ilohiyat, tibbiy va tarix hamda adabiyot fanlari sohasida Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Sultonali Xo'jandiy, Yusuf Tabib, SHarafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro', Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy, Zahriddin Muhammad Bobur tilshunoslikda Fazlulloh Abulayz kabi buyuk olim, adiblar kamol to'di.

Temuriylar davrida bunyod etilgan "Bibixonim" jomiy masjidi "Go'ri Amir" maqbarasi, "SHohizinda" binolari, "Bog'i maydon" bog'i, Buxoro, Samarqand, Xiva, G'ijduvonda qurilgan madrasalar temuriylar davrida yaratilgan o'lmas obida, yodgorliklardir.

Xalq pedagogikasi rivoyatlarda ma'naviy - axloqiy tarbiya aloxida o'rinni egallaydi. Har bir xalq elat, jumladan, o'zbek xalqi o'ziga xos axloq qonun - qoidalarini yaratadi. Insoniylik mezoni axloq qonun-qoidalarini yaratadi. Insoniylik mezoni axloq qonuniyatining asosi bo'lib qoldi. "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin " maqolida ham o'zbek xalqining

insoniylikka bo'lgan talabi yorqin ifodalangan. Xalq tasavvurida olim bo'lishga nisbatan, haqiqiy odam bo'lish mushkuldir. SHu sababli ham yosh avlodni go'zal axloqli qilib tarbiyalashda insoniylik mezoni tarbiyaning asosini tashkil etadi degan g'oya qadimdan boshlab hozirgacha davom etib kelmoqda. Insoniylik mezoni insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya'ni odamlar bilan o'zaro yaxshi munosabatda bo'lishni, o'zaro do'stlikni ("kuchli bo'lay desang do'st ortir"), ota-onaga sadoqatlikni ("ota oldidan o'tma, odob oldidan ketma"), vatanga va elga sodiqlik kabi ijobiy fazilatlarni o'z ichiga oladi.

Xalqimiz yoshlikdanoq bolalarning shunday go'zal fazilatlarini egallab olishlariga ahamiyat berib keldi. Yaratgan maqolalarida o'z vataniga, tug'ilib o'sgan joyiga cheksiz muhabbat va iftixor tuyg'ularini yosh avlodga singdirishni vazifa qilib qo'yar ekan, o'z vatanida yashashni haqiqiy baxt deb bildi, vatanni ona timsolida tasavvur etdi. ("Ona yurtning omon bo'lsa rang-ro'ying somon bo'lmas", "Ona yurtning – oltin beshiging", "Ona yerning tu'rog'i, ona sutidan aziz"). Aqliy tarbiya insonning sharafligi, g'ayratli, irodali bo'lishiga muhim rol o'ynaydi. Uning samarali bo'lishi ko'p jihatdan oila va ustozlarning tarbiyasiga bog'liqdir. SHu ma'noda bolalarning aqliy tarbiyasida asosiy ustoz oila, ota-ona, keksalar bo'ladilar. Ular jamiyatda, turmushda yuz bergan hodisalar natijasi bo'lgan ko'p yillik hayotiy tajribalarini yosh avlodga tavsiya etadilar. Bolalar ulardan olgan, o'rgangan bilim va malakalarini oila va qishloq xo'jalik ishlarida, bog'-rog'lar yaratishda, sabzavotchilikda, chorvachilikda, hunarmandchilikda ishtirok etish jarayonida qo'llaydilar.

Rivoyat hayotiy voqealarni badiiy uydirmalar vositasida hikoya qiluvchi realistik xarakterdagi og'zaki ijod turlaridan bo'lib, g'oyaviy – tematik jihatdan rang-barangdir. Rivoyatlar tarixiy voqealar va ayrim shaxslar bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni, ijtimoiy hayot va turmush, geografik joylar – sahro, ko'l, cho'l, dengiz, shaxar, qishloq, saroy va boshqalarning bar'o bo'lishi hamda vayron qilinishi haqida hikoya qilishi mumkin.

Rivoyatlarda lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafo, yaxshilik va odamiylik kabi ilg'or g'oyalar jamiyatda uchragan zulm va zo'rlik, haqsizlik va adovat singari illatlarga qarshi qo'yiladi.

Rivoyatlarni ikki turkumga bo'lish mumkin. Biri muayyan voqea va tarixiy shaxslar bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlar, ikkinchisi to'onimik rivoyatlar. Tarixiy rivoyatlar biror shaxs faoliyati va xalq qaxramonlari bilan bog'liq bo'lgan hodislarni hikoya qiladi, axloq va odobning ideal normalarini tashviq etib, muayyan xodisalar haqida ma'lumot beradi. Alisher Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab kabi olim va shoirlar Amir Temur, Sulton Mahmud singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir.

Rivoyatlar ixcham, puxta syujetli, ikki- uch e'izoddan tashkil to'gan bo'ladi. Ammo o'zgarmas, qat'iy kom'ozitsiyaga ega emas. Hikoya qilingan voqealar go'yo tugullanmagandek, davomi bordek seziladi. SHuning uchun ham rivoyat katta asardan uzib olingan bir lavha singari tuyuladi.

Rivoyatlarni u yoki bu tarixiy shaxs yoki tarixiy xodisalar guvohi bo'lganlarning, ko'rgan- bilganlarning esdaliklari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Bunday xodisa rivoyat janrining o'ziga xos xususiyatini belgilaydi. Ba'zi ri voyatlarda faktik voqealardan asar ham ham qolmay, faqat shaxs nomi yoki uning biror belgisigina saqlanib qolishi ham mumkin. Ba'zan esa tarixiy shaxs sayyor syujet qoli'ida hikoya qilinadi. Bunday holda hayotiy uydirmalar yoki sayyor syujetlar yetakchi o'rinni egallaydi.

«Vafo hazratlari va farzand tarbiyasi» degan rivoyat boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy – axloqiy kamol to'tirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Karang: bola tarbiyasi halol, poklikni talab qilar ekan. Kimki farzandim kelajakda to'g'ri, halol, sog'lom fikrli, aql - zakovatli bo'lsin, desa eng avvalo o'zi shu darajada bo'lishi kerak ekan. Rivoyatda el – yurt o'rtasida juda katta obro' - e'tiborli odamning bolasi o'zboshimcha, beodob, dilozor bo'lib kamol to'adi. Buning asosiy sababi onaning noo'rin xatti - harakati ekan. Hadislardagi « xalol ham, aniq harom ham aniq »da jon bor ekan,

bolalarim.

O'z zamonasida, - deya rivoyatini boshladi Enaxon kam'ir, katta shuhrat qozongan Vafo Hazratlari odamlaridan tortib to eng oddiy odamlargacha mehribon edi. Bir kun saqov (suv sotuvchi) kelib Vafo Hazratlarining huzurida tiz cho'kib o'tirdi. Suv sotuvchining g'amgin ko'rinishidan bir dardi borligi bilinib turardi. Vafo Hazratlari saqovdan so'radi:

- Bolam, biror g'am, darding bormi?

- Yuq afandim, qanday aytaman, - deb javob berdi suv sotuvchi.

- Bolam, ga'iraver, uyalma, dardingni ayt, - dedi Vafo Hazratlari.

- Hazrat, sizning farzandingiz mening meshlarimni teshdi. Bugun oltinchi meshni juvoldiz (bigiz) bilan teshdi. Bilasiz, faqir odamman, nima qilishni bilmay qoldim, - dedi saqov.

- Xafa bo'lma, bolam! Men bir chorasini to'aman. Hozircha mana bu pulga mesh sotib ol. Men ushbu xunuk ishning sababini bilay, - dedi Vafo Hazrat. Suvchi battar siqilib, bo'ynini egib chiqib ketdi. Vafo Hazratlari mulohaza qilib, o'ylab qayga yetmadi, nega farzandi bunday ish qilib qo'ydi? So'ng xotinini chaqirdi, va:

- Xonim, kel, bir mulohaza bor. Bizning o'g'lonimiz suv sotuvchining meshlarini bigiz bilan teshibdi. Bu xunuk ish nega sodir bo'ldi? – dedi.

- Sen olib kelasan, biz yeymiz. Xarom narsa olib kelinsa, sen olib kelasan, barcha gunoh, ayb sendadir, - deb javob berdi xonim.

Vafo Hazratlari xotining fe'lini bilgani uchun: «Men o'ylab to'a olmadim, xatoimni bilmadim. Mayli, sen hozir bor - da, yaxshilab o'ylab ko'r. Bu ayb yo menda, yo senda», dedi. Xonim Vafo Hazratlari huzuridan chiqib ketdi, birozdan so'ng qaytib keldi, va:

– Hazrat! Meni esimga tushdi, dedi hayajonlanib.

– Men o'g'limizga homila ekanimda falonchi xonimlarnikiga mehmonga borgan edim. O'shanda ularning uyida bir anorni ko'rdim. Katta yoshdagi,

qariya onalardan « agar homilador ayolni ko'ngli bir narsani tusasa va agar uni totib ko'rmasa, tug'iladigan bolasi bir ojizlik ila tug'iladi » deb eshitgandim.

Mezbondan so'rashga tortindim, ayb hisobladim. Bolamning biror a'zosiga putur yetmasin, deb qo'rqib, uy egasi xonimdan bir piyola suv so'radim. U suvga chiqib ketganida, yoqamdagi to'g'nog'ichni olib xontaxta ustidagi anorga ignasini tiqib yaladim, - dedi.

- Ofarin, xonim! Mana hozir sening xatoing ma'lum bo'ldi. Tez borib ul xonimdan uzr so'ra, - dedi Vafo Hazratlari.

- Voy, afandim, ayb bo'lmaydimi, - e'tiroz bildirdi xonim.

- Unga nima deyman. SHu arzimas ishdan nima bo'lardi?

- Yo'q xonim! Ul xonimdan borib halollik tila! Allohning oldida birovning haqini katta - kichigi bo'lmaydi. Bilasanmi, nima bo'ldi?

Bizning farzandimiz hozir olti yoshda. o'sha voqeadan so'ng 6-7 yil o'tgach, sening to'g'nog'iching o'g'ling qo'lida bigiz bo'ldi. U anor esa suv sotuvchining meshi bo'ldi. Sen bilgan xunuk ish davom etmoqda, - deb uqtirdi Vafo Hazratlari xotiniga. “ Xalq og'zaki ijodini bilmaguncha mehnatkash xalqning haqiqiy tarixini bilish mumkin emas”.

I.BOB bob bo'yicha xulosa.

O'zbek xalqining va boshqa xalqlarning uzoq yillar bola tarbiyasida o'rttirgan tajribasi kuchli qudratga egaligi va xalqchilligini bilgan mutafakkirlar, shoir va olimlar o'z faoliyatlarida unga amal qildilar. Ular xalq urf- odati va an'analarini o'rganib, o'tmish avlodlar donishmandligi kelgusi avlodlar uchun ko'zgudir degan xulosaga keldilar va ularni tashviq etdilar. Xalq og'zaki ijodidan avloddan – avlodga o'tib kelayotgan yodgorliklarida (maqol, ertak, to'ishmoq, rivoyat, afsona va dostonlarida) moddiy dunyoning moddiyligi, hayotda voqea va xodislarning sodir bo'lishi ularning sabab va oqibatlari, tabiat va jamiyat hodisalarining bir- biriga bog'liqligi, shakl va mazmun birligi, bola tarbiyasi haqidagi tasavvuri ifodalangan.

Xalq pedagogikasi ana shu xususiyatlari bilan ilmiy pedagogikaning muxim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning ilmiy pedagogikadan farqi shundaki, u tarixiy, mantiqiy va qurilish jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega.

Hamma xalqlarda o'tmishda oilada turli mavzudagi ertak, rivoyat, doston, latifa, hikmatlaridan bolalar tarbiyasida keng foydalanilgan. Ota-onalarning tunda uyqu oldidan aytib bergan ertaklaridan bolalari ruhiy oziq olgan, hayotdagi va odamlardagi yaxshi fazilat va yomon xislatlarni bilib olishgan, hurmat va muruvvat, adolat kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishgan. Natijada butun hayotlari davomida ertaklar ularning doimiy hamroxi bo'lgan, ular uchun hayot darsligi bo'lib xizmat qilgan va hozir xam xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, har bir xalq pedagogikasi boshqa xalqlar pedagogikasi bilan bog'liq holda yaratilgan. SHu sababli ham ularning ijtimoiy – siyosiy, madaniy hayotlari, tarixiy taqdirlari ifodalangan urf- odatlari, an'analarida o'xshashlik mavjuddir. Bu o'xshashlik ularning mehnat, nafosat, aqliy va axloqiy tarbiya sohasida qilgan ishlarida yorqin ko'rinadi.

Mutafakkirlarning ilg'or g'oyalari – yosh avlodni aqliy va jismoniy jihatdan yetuk, ma'rifatli, bilim va hunarlarni egallagan, odob-axloq qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan, go'zal didli va zavqli qilib tarbiyalamoqda.

II.BOB. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning pedagogik shartlari.

II.1 Xalq og'zaki ijodi janrlarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarining ishlari mazmuni va uni tashkil etish usullari.

O'zbek xalqining asrlar mobaynida to'plagan xalq og'zaki ijodi xazinasiga g'oyat boydir. U xalqimiz ma'naziy madaniyatining oltin xazinasiga hisoblanadi. Keksa avlod vakillari hayot tajribalari asosida te'langan, shakllangan dono fikrlarini qu'o'i avlodlarga og'zaki hiqoya, ertak, afsona, rivoyat, to'ishmoq, matallar shaklida singdirishga, hikmatlari bilan xalq qalbiga kirib borishga intilgan. Xalq ertaklari, to'ishmoq va matallar orqali bolalarni ota-ona larining, kattalarning maslahatlariga diqqat-e'tibor bilan quloq solishni o'rgatgan, ertak qahramonlaridan namuna olishga undagan.

Ertaklar faqat bolalargagina ta'sir ko'rsatib qolmasdan, balki otalarning o'ziga ham, ularning hayot tarziga, qarash va ishonchlariga, axloqiy qiyofalariga ham ta'sir etadi. Xalq xotirasida saqlanayotgan, avloddan-avlodga o'tib kelatyotgan eng yaxshi ertak va dostonlar, maqol va matallar, ashula va to'ishmoqlar bolalarni tarbiyalaydi, yaxshilikka, mehnat qilishga va haqgo'ylikka undaydi.

Xalq og'zaki ijodida bolalarni bosiqlikka, sofdillikka, oddiylikka undash bilan birga, ulardagi gerdayish, ichi qoralik, chaqimchilik va boshqa salbiy sifatlar qoralangan: "Manmanlik qilma, netarsan obro'yingdan ketarsan", "Sen o'zingni maqtama, seni birovlar maqtasin", "Egilgan boshni qilich kesmas", "Mevali daraxtning meysi qanchalik ko'p bo'lsa, uning boshi shunchalik pastga egiladi", "Baxilning bog'i ko'karmas", "Birovga go'r qazisang, o'zing yiqilasan", "Egri o'ltirib, to'g'ri ga'ir", "Ko'r'angga qarab oyoq uzat" singari xalq maqollarida pand-nasihat ifoda etilgan. Ko'plab

maqol va matallarda bilimli bo'lish ulug'lanadi, bilimsizlik qoralanadi. "Bilagi zo'r birni yiqar, bilmi zo'r mingni yiqar", "Ilmi yo'qning ko'zi yumuq", "Ilmsiz bir yashar, imlmli ming yashar", "Ko'p o'qigan – ko'p bilar", "Olim bo'lsang, olam seniki", "O'qigan o'g'il – otadan ulug'" va hokazo.

Vatan'arvarlik, vatanni sevish mavsuzi ham maqol va matllarda aks etgan. Vatan'arvarlik kabi siftlarni shaklantirish muhim o'rin tutgan. Masalan, "Kishi yurtida shoh bo'lguncha o'z yurtida gado bo'l", "Ona yurtida omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas", "Elga qo'shilganning ko'ngli to'q, eldan ajralganning beti yo'q".

-O'tmishda bir xukmdor shikorda adashib, bir joyga borib qolibdi. Nogahon bir qizni uchratib, uni yoqtirib qolibdi. O'z yurtiga qaytgach, sovchi yuboribdi. Sovchilarga borib, «u qiz nima desa ham rozi qilib kelinglar», deb tayinlabdi. Sovchilar qiznikiga borishibdi. siz sovchilarga qarata: «Agar podshongiz meni yoqtirib qolgan bo'lsa, bir shartim bor. SHuni bajarishi kerak, debdi-da, sovchilarning qo'liga bir xaltacha tutqazib, so'zida davom etibdi: podshongiz mana shuni to'lg'azib tillo bersa, unga tekkanim bo'lsin».

Sovchilar qiz bergan xaltachani olib borib, podshoga to'shirib, qizning shartini aytishibdi. SHunda podsho kulib: «SHo'ring qurg'ur kambag'al hech bo'lmasa aravada tillo so'ramaysanmi, shu kichik xaltachada tillo so'raysanmi?» – debdi. SHundan so'ng xaltachani oshirib-toshirib tilloga to'lg'azinglar, deb buyuribdi. Ammo qiz yuborgan xaltachaga podshoning xazinasidagi hamma tillo - yu zarlarni solishsa ham hech to'lmabdi. Bundan g'azablangan podsho xalqiga behad kr' soliqlar solib, yiqqan hamma oltin-kumushlarni solsa ham bari-bir qizning xaltachasini to'lg'aza olmabdi. podsho oxiri vazirga: «Mo'pjizaning sirini qanday bo'lmasin shu kecha o'ylab to'ib kel» - deb buyuribdi. Vazir nochor qiz qoshiga bosh egib boribdi...,– agar xaltachaning sirini aytib berolmasam, podsho meni qatl etadi, - debdi. -Bu xaltachaning to'lmasligida hech qanday sir, mo'pjiza yo'q, - debdi qiz, keyin yerdan - o'z ona yurti yeridan bir siqim tu'roq olib

unga beribdi - da, mana shuni men bergan xaltachaga solsin, deb uni iziga qaytaribdi. Vazir bir siqim tu'roqni podshoga beribdi. podsho qizning aytganini bajo keltirgan ekan, xaltacha tezda to'libdi. Qarang-a ona yerning bir siqim tu'rog'i uning xazinasidagi oltin-kumushlar bilan to'lmagan xaltachani tezda to'ldirgan ekan. Qizning shartidan podsho: «Uzoqning bug'doyidan, yaqinning somoni yaxshi», «o'zga yurtida podshoning xotini bo'lganimdan, o'z yurtimda kambag'alga ayol bo'lganim yaxshi» - degan ma'noni uqibdi. SHu tariqa ona diyorning bir siqim tu'rog'i o'zga o'lkaning barcha boyliklaridan afzalligini anglabdi - da, qizga uylanish niyatidan voz kechibdi. Osmoni ostida yashagan, havosidan to'yib - to'yib nafas olgan, suvlarini ichgan, nonlarini yegan Vatanni jondan ziyoda sevis, uning nomini buyuk saqlash kerak.

Vatan kishilarning hurmatli va har kimning sharafli bir faxridir. SHuning uchun Vatan to'g'risida mol - mulkni qizg'anmaslik, kuch - quvvatni ayamaslik zarur. Vatanga fidokor bo'lmagan kimsa bu zaminda yashashga ham haqqi yo'q. Kimki ona - O'zbekistonimizda tug'ilib o'ssa-yu, uni oyoq osti qilsa, Vatan gadosi - kafan gadosi bo'lib o'ladi. Qarang, To'maris, SHiroqlar haqida ham, bularning Vatan uchun, ona yer, xalq uchun qon to'kkanliklari to'g'risidagi afsonalarni sizlarga ko'p bor hikoya qilib berganman. Odam xuddi o'shalar kabi bo'lishi uchun intilishi, harakat qilishi lozim. o'tmishda bir kekxa kam'irning Ahmad ismli o'g'li bo'lgan ekan. U endi dastyor bo'lganida, onasining yalinib - yolvorishiga qaramay, bir necha boyvachchalarga qo'shilib o'zga yurtlarga ketibdi.

Boyvachchalarda pul ko'p. Ahmad boshda ularning xizmatida bo'lib qornini to'ydirib yuribdi. Boyvachchalar chet elga yetishlari bilan o'z ishlari bilan turli tomonlarga bo'linib ketishibdi. Ahmad ham tili boshqa, dini boshqa katta shahri azimda bir necha kun tentirab yuribdi. Tilamchilik qilibdi. Ammo qorni nonga to'ymabdi. Kunlardan bir kun ochlikdan madori qurib yiqilibdi. Atrofiga to'plangan odamlar orasida o'zi bilan birga kelgan haligi boyvachchalardan biri ham bor ekan. U, - tur o'rningdan,

mana bu o'n tanga pul, qorningni to'qlab ol, - debdi unga o'n tanga pul berib.

Ahmad zo'rg'a ko'zini ochib qarasa te'asida bir oy burun o'zi bilan birga kelgan boyvachcha yigit unga pul uzatib turgan emish. Ahmad uni ko'rib o'zini ancha tetik his qilib, o'rnidan turib o'tiribdi.

-Jon uka. Meni o'z yurtimga olib keting, men bu yerda ochlikdan o'lib qolaman, - debdi. -Men o'z yurtimizda ho' Ahmad, ishla ona tu'rog'imiz seni boqadi, odamlarimiz yaxshi seni och qo'ymaydi, onangni yolg'iz tashlab ketma, uning xizmatini qil, duosini ol dedim quloq solmading, o'zga yurtida pul ko'p, deding. Mana senga o'zga yurt. Endi niyatingga yetding, shu maskanda yashayver, - deb Ahmadning oldidan boyvachcha keta boshlagan ekan Ahmad bor kuchini to'plab unga tashlanibdi va: - Ukajon, qulingiz bo'lay, nima ishingiz bo'lsa ado etaman, iltimos, meni onamning oldiga olib keting, o'z yurtimda o'lay, o'ligim o'zgalar yurtida qolmasin, - debdi. -Men senga yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar, elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar; birovning yurtida bek bo'lguncha, o'zingni yurtingda it bo'l deb ko'p nasihat qildim, ko'nmading. Yana ona yerning tu'rog'i ona sutidan aziz, dedim sen esa o'zga yurtni, o'zga odamlarni, o'zga tu'roqni orzu qilding. Bizda er yigit o'zi uchun tug'ilar, eli uchun o'lar, degan maqol bor. Xo'sh, sen yigit bo'lib eling uchun, keksa onang uchun nima xizmat qilding? xech narsa. O ukajon, meni onamga, Vatanimga olib keting, deb Ahmad yana oldinga intilgan ekan u madorsizlikdan yerga gursillab tushibdi, yiqilibdi-yu jon beribdi. Boyvachcha esa bunga parvo ham qilmay o'z yo'lida davom etibdi.

Bolalarim, Ona – Vatanimizni, go'zal Uzbekistonimizni astoydil seving, odamlarni e'zozlang. Yaxshi insonlar bo'lib kamol to'ing. Ahmadlar to'g'risidagi ga'lar sizlar uchun rivoyat va ertak bo'lib qolaversin.

Oilaviy tarbiyada xalq pedagogikasi an'analar, rivoyat, ertak, maqol, to'ishmoq va matallar shaklida o'z ifodasini to'gan va u tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositasi sanalib, tarbiyaning barcha qirralarini qamrab olgan.

Ayniqsa, inson va uning tarbiyasi, o'z-o'zinii tarbiyalash va qayta tarbiyalash, bolalikning yosh davrlari, ularning dangasalik va injiqliklari, o'yinlari, qizlar tarbiyasi haqida ajoyib matal maqol, aforizmlar yaratilgan bo'lib, ular xalq pedagogikasi sabog'ining yorqin namunasidir.

Xalq donishmandligida ota-onalar haqida, ularning bolalari bilan munosabatlari, onaning madaniy, tarbiyaviy ta'siri, donoligi atroflicha yoritilgan. Masalan, oilada hamma kishi bir kishiga – otaga itoat etgan. Otaning yoki onaning ga'i ikki qilinmagan. Otaning izmidan chiqish, u kishining buyruhini bajarmaslik, otaga ga' qatyaish, unga tik boqish gunoh hisoblangan. Ota farzandining nojo'ya ishi, qilig'i, ga'i, qilmishi uchun haqorat qilishi, suvishi, hatto urishi mumkin bo'lgan. Lekin farzand otaga tik boqmagan, otaga yoki onaga qo'l ko'tarmagan. SHu sababli ham bunday tartibli oilarda beboo' o'g'il, no'ok qiz bo'lmagan. Hadisda yozilganidek “Otaga itoat qilish – Tangriga itoat qilishdir. Uning oldida gunoh qilish Tarnгри oldida gunohkor bo'lish bilan barobardir”.

SHuni esdan chiqarmaslik kerakki, xalq donishmandligi, an'analar avlodlardan-avlodlarga o'tish jarayonida shakl jihatidan o'zgarishlarga uchraydi, lekin o'z mazmuni, tarbiyaviy ta'sirini yo'qotmasdan hozirgi va kelgusi avlodlarga xizmat qiladi. Xuddi shu ma'noda xalq pedagogikasini ilg'or tarbiya g'oyalari bilan uyg'unlashtirish, oilaviy tarbiyada qo'llanilgan an'analarni yildan-yilga shikllanib borayotgan yangilari bilan boyitish, tuzumimiz uchun sadoqatli yoshlarni voyaga yetkazish davrimizning eng muhim muammolaridan biridir.

SHarq xalqlari, jumladan o'zbeklar bolalar tarbiyasiga befarq qaramaganlar. Hayotdagi har qanday xatti-harakatning ham oqibati to'g'ri baholangan. Yoshga monand ta'sir ko'rsatishi yo'l va vositalari yaratilgan. Kerak bo'lganda rag'batlantirish turlaridan foydalanilgan, lozim bo'lsa jazolangan. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” deb bejiz aytilmagan. Tarbiya borasida xatolikka yo'l qo'ygan bola u kimligidan qat'i nazar jazolangan. Noaxloqiy xatti-harakatlarni qisqa va lekin o'ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan “yomon bo'ladi” iborasi bilan tavsiflangan. Masalan, xalqimizning

qadimdan amal qilib kelayotgan odob-axloq qoidalariga ko'ra nonga hurmat ulug'langan va non ushog'i bexosdan yerga tushib ketsa, "yomon bo'ladi" deb, uni qo'lga olib ko'zga surtib, o'pib, og'izga solingan yoki chetga olib qo'yilgan.

Suvga tuflash "gunoh" bo'ladi, "yomon bo'ladi" deb tushuntirishgan. Qadimda hovuzlarning suvi haftalab, oylab toza turgan. Biroq, kishi uni "harom" qilishga botinolmagan. Bolalarga bu "yomon bo'ladi" iborasi orqali yetkazilgan. Qozonga mushuk yoki it, sutga sichqon tegsa o'sha idishlar "harom" hisoblanib, toza suvda yaxshilab yuvilgan. Kechqurun qozon yuvuqsiz qolsa "harom" bo'lgan... Kechasi o'y su'urilmagan, su'urgi yotqizib qo'yilgan... Ikki qo'lini orqaga tirab chalqancha yotish, barmoqlarni zanjir qilish, oyoqlarni chalishtiri, ko'pchilik oldida uzatib o'tirish odobsizlik hisoblangan.

"Yomon bo'ladi" iborasi orqali kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxurlik tarbiyalangan, yetim bolalarga, boshiga musibat tushgan oilalarga szor yetkazilmagan. Otaga tik qarash, ularga ters javob berish, qizlarga, umuman xotin-qizlarga behayolik qilish "yomon bo'lish"ini yoshlikdan tushuntirilgan. Bunda bolaning yoshi, xatti-harakatlari, o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan. Ayrimlariga noaxloqiy xatti-harakatlarning yomonligi Qur'oni karim, hadislardan: misollar keltirish, hikoyalar aytib berish orqali ifodalansa, ayrim yoshdagi bolalar ota-ona, aka-uka, ona-singil, qo'ni-qo'nilarining ijobiy xatti-harakatlari namunasida tarbiyalangan.

Bunday axloqiy fazilatlar bola aqlini tanimasdan, ga'irishni bilmasdan oldin ota-onalar turmush tarzida ifodalangan. Keyichalik esa, "yomon bo'ladi" iborasi orqali davom ettirilgan. Masalan, musulmon farzandi quyosh chiqquncha uxlasa, "yomon bo'ladi", erta saharda eshik ochilmasa, "emon bo'ladi", "knlik rizqimizdan benasib qolamiz" iboralarri bolalarni erta turishga undagan. Kechki payt quyosh botish arafasida uxlasa, "yomon bo'ladi" deb uqtirilgan.

Hayvonlarga, qushlarga tosh otma, ozor berma, "yomon bo'ladi", mevalarni tishlab tashlama, "yomon bo'ladi", qush uyasini buzma, ekinlarni

payhon qilma, “yomon bo’ladi” kabi iboralari orqali ona tabiatga hurmat, uni avaylab asrashga o’rgatilgan, hozirgi so’zimiz bilan aytilganda ekologik tarbiya asoslari berilgan.-Rivoyat qilishlaricha, o’tgan zamonda bir devona bor ekan. U devona «ko’kka tu’ursa, betga tushadi», deb aytib yurar ekan. Ung ko’zini ko’rsatkich barmog’i bilan ko’rsatib, «mana ko’rdinglarmi» deb, kulib ketaverar ekan.

SHu ga’dan boshqani aytmas, hech kim bilan so’zlashmas, birovdan biror narsa tilamas ekan. Usha shahar podshosining vazirlari devonaning aytib yurgan so’zlarini podshoga yetkazishibdi. podsho devonani o’z huzuriga chaqirtirib keltirgan ekan, podshoning yoniga kirganida ham, ta’zim qilib o’z ga’ini takrorlabdi: «ko’kka tu’ursang, betingga tushadi» va tu’urib ko’rsatibdi.

Devonaning ga’i va qilig’i podshoga manzur bo’libdi-yu, unga qarab:

-Devona, bundan keyin bizning oldimizga har kuni ertalab salom vaqtida bir kelasan - u, shu ga’ni aytib, xazinachidan bitta oltin olib ketaverasan, - debdi va xazinachiga qarab: - Devonaga bitta oltin bergin! – deb buyuribdi.Devona pulni olib qulluq qilib, aytadigan ga’ini yana bir marta aytib chiqib ketibdi.

SHundan keyin devona har kuni erta bilan salom vaqtida kelib, ga’ini aytib, pulni olib ketaveribdi. Devona podshonikiga bir necha yil qatnagandan keyin saroy vaziri podshoning xazinasiga achinibdimi yoki devona olgan pullarni o’zi olgisi kelibdimi, bir ilojini qilib, uni yo’qotmoqchi bo’libdi. O’ylab - o’ylab, bir kuni kechqurun osh’aziga ertalabgacha turli-tuman taom tayyorlashni buyuribdi. Ertalab turib, dasturxon yozib, tayyorlangan ovqatlarni tortib, o’zi devonani poylabdi. Devona vazirning hovlisiga yaqinlashishi bilan vazir unga:

-Devona, bugun choyni birga ichaylik, ataylab seni poylab turibman, - deb, uni «yo’q» deyishiga qaramay, sudrab olib kiribdi.

O’zi ham devona bilan o’tirib, uni ovqat yeyishga qistayveribdi. Bechora devona bunday lazzatli ovqatlarni umrida yemagan, tushida ham

ko'rmagan ekan, yoniga surib qo'yilgan ovqatlarni oz-oz yeb to'yib qolibdi. Vazir devonaning to'yganiga qaramay, uning oldiga yana surib qo'yaveribdi, devonaning ko'zi ochlik qilib, har xil ovqatni aralashtirib yeb sassiq me'da bo'lib qolibdi.

-Ey janobi vazir, ahvolim yomon-ku, endi podshoning huzuriga borishim qiyin bo'ladi, - debdi devona vazirga.

-Ha, devona, nima bo'ldi? - o'zini bilmaslikka olib so'rabdi vazir.

-Ey taqsir, sassiq me'da bo'lib qoldim-ku? -Xech narsa qilmaydi, devona, - dedi vazir. -Nimaga hech narsa qilmas ekan! podshoning huzuriga kirgan zamon kekirib yuborsam, og'zimdan chiqqan badbo'y hid podshoning dimog'iga yetib borsa, yomon bo'ladi-da, - debdi devona.

-Ey devona, shuni ham g'amini yedingmi, bu juda oson-ku! Sen saroyga yetib borgach, yengingni mana bunday og'zingga tutib kirgin, to chiqquncha og'zingdan olmagin, - deb o'rgatibdi vazir.

Bu ga' devonaga ham ma'qul kelibdi. Vazir devonani jo'natib, o'zi undan avvalroq podsho huzuriga kelibdi va: -Men sizning davlatingizga, xazinangizga achinaman, podshohim, - debdi.

-Xazinadan biror marta nojo'ya pul chiqdimiki, achinasan!- debdi podsho. - Bu la'nati devona ko'chalarda sizni yomonlab, sha'ningizga bo'hton so'zlarni aytib yurganmish, siz bo'lsangiz, unga har kuni bitta oltin in'om qilasiz. -Men haqimda nimalar der ekan? - deb so'rabdi podsho. «podshoning o'zi ham sassiq, uning suhbatini ham sassiq. Men undan qo'rqanimdan saroyga boraman, bo'lmasa uning bergan puli qurib ketsin», deb aytayotganini o'zim eshitdim. Ilgari har kimdan eshitib yurar edim-u, ishonmasdim. U yana «podshohning suhbatini shunday sassiqki, men uning huzuriga kirganimda dimog'imga yengimni tutib kiranman va o'sha yerdan chiqquncha yengimni dimog'imdan olmayman», deb aytibdi. Menga ishonmasangiz, kelganida ko'rasiz, - debdi vazir. Bir payt podsho huzuriga yengini og'zi-burniga tutib devona kelib qolibdi. Vazir podshoga qaragan

ekan, podsho ko'zi bilan tasdiq alomatini qilibdi. Devona aytadigan ga'ini aytib bo'lganidan keyin, podsho bir qog'oz xaltaning ustiga: «SHu xaltachani olib borgan odamga yuzta oltin berilsin», -deb yozibdi. Vazir podshoning o'ng tomonida o'tirgan ekan, ustidagi xatni o'qibdi. podsho uni devonaga uzatibdi va: -Borib olgin, hammasi senga, - debdi. Devona saroydan chiqishi bilan vazir unga yetib olib va uning yo'lini to'sib: - Devona, bu mukofotni menga bersang bo'lardi, biz do'stlashdik-ku, - debdi. - Mana, ola qoling, - deb qo'lidagi xaltani unga uzatibdi va saroydan chiqib ketibdi. Vazir yana bir marta o'qib, shoshib xazinachining yoniga boribdi. Xazinachi qarasa, xaltacha ustiga, «SHu xalchatani olib borgan odamga yuzta oltin berilsin», deb yozilgan. U «bu yerda biror sir yo'qmikan» deb o'ylabdi va vazirga:

- Bir'as turib tursalar, hozir olib chiqaman, - debdi.

Xaltachaning ichini ochib qarasa, ichida bir xat bor ekan. Unda: «SHu xatni olib borgan odamni maxfiy hujraga olib kirib o'ldirgin!» deb yozilgan ekan. Xazinachi maxfiy hujradagi jallodga: «Eshikdan kirgan kishini cho'ib tashla!» - deb tayinlabdi-da, vazirning yoniga chiqib: - Marhamat, taqsir, mana bu hujradan olasiz, - deb, vazirni maxfiy hujraga kirgizib yuboribdi. Ertasi kuni ertalab hamma vazirlar, ulamolar saroyga yig'ilganda, devona har kungi odati bo'yicha kelib, o'z so'zini aytibdi. podsho hayron bo'lib, xazinachiga odam yuboribdi, u kelgach, so'rabdi: - Nima uchun mening buyrug'imni bajarmading?

- Bajardim, - debdi xazinachi. - Oldingda turibdi-ku, yana bajardim deysan! - deb baqiribdi podsho. - Men buyrug'ingizni bajardim, - deb podshoning kechagi xatini o'ziga ko'rsatibdi. - Bu qanday bo'ldi ekan? - deb podsho hayron bo'libdi. - Devona, kecha bo'lgan voqealarni aytib bergin, - debdi podsho. Devona kecha ertalab vazirning ziyofat qilganini, sassiq me'da bo'lganini, vazir unga yengini og'ziga tiqib borishini tayinlaganini, podshodan xaltachani olib xazinaga ketayotganida vazir chiqib xaltachani undan so'rab olganligini aytib beribdi. Va doimgidek «ko'kka tu'ursang, betingga tushadi» deb

hammaga ko'rsatibdi. - Devona, bugundan boshlab har kuni bir oltin emas, besh oltin olasan va shu ga'ingni hamma vaqt aytib yurgin, - deb buyruq beribdi podsho.

2.2. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishni tashkil qilish usullari va bola tarbiyasidagi ahamiyati.

Yolg'onchilik-yomon illat. Unga muhtalolik imonsizlikka duchor bo'lmoq bilan barobar. Bir kishi payg'ambarimiz (s.a.v) dan so'rabdi:

-Ey Allohning rasuli! Men ham Sizning diningizga kirmoqchiman. Lekin bir illatim bor.

-Xo'sh, nima ekan o'sha illating?

-Yolg'on ga'irishga o'rganib qolganman.

-Unda senga g'oyat qiyin ekan. Yolg'onchilik –imonsizlik belgisi...

-SHunday bo'lsa ham men musulmon bo'lmoqchiman. Buning uchun, ayting, nima qilay? Avval namoz o'qishga kirishaymi yo yolg'onchilikdan qutilish chorasini ko'raymi?

-Avval yolg'onchilikni tashlamasang, musulmon bo'lmog'ing qiyin. Negaki yolg'onchining namozi ham yolg'on bo'ladi. U Xudoga ham yolg'on ga'iradi.

Yolg'onchilik-qabih illat. Undan saqlaning. Xalqimiz “yolg'onchidan Xudo bezor. “yolg'onchining rost ga'i ham yolg'on”, “yolg'onchidan imon yo'q” degan maqollarni bejiz to'qimagan. Yolg'oning umri qisqa. U yolg'onchini sharmandai-sharmisor etadi, el aro obro'sini to'kib, nazardan qoldiradi. Negaki aqli raso odam yolg'on bilan chinning farqiga yetadi.

Rivoyat qilishlaricha, bobokalonimiz Ulug'bek yolg'on bilan rostni aniqlashda aqli raso ekanlar. Kunlardan bir kun notanish odam ul muhtaram zot huzuriga kelib shikoyat qilibdi:

-Ey olam'anoh! Men Samarqanddan Buxoroga safarga chiqqanimda xayonimda ming tanga pulim bor edi. SHahardan chiqib ketgach, yo'ldagi bir daraxt soyasida dam olgani o'tirgandim, nogoh qarshimda bir do'stim paydo bo'lib qoldi. Birga tanovul qildik. Keyin xamyonimdagi ming tangani shu

do'stinga berib, uni uyimdagilarga to'shirishni iltimos qildim. U rozi bo'lib xamyonni olib ketdi. Biroq safardan qaytgach surishtirsam u omonatini uyimga bermabdi. Xiyonatchining huzuriga bordim. U do'stim:

-Esing og'ib-'og'ib qolganmi? Men seni ham, hech qanaqa daraxt-'araxtni ham ko'rgan emasman. SHunday bo'lgach, ming tangang haqidagi ga'laring ham afsona, -deb yolg'onni ko'pirtirdi.

Mirzo Ulug'bek shikoyatiga:

-Sen o'sha daraxtdan uch-to'rtta barg keltir. Men uning vositasida haqiqatni aniqlayman, -debdilar.

SHikoyatchi yo'lga tushgach esa shoh "Ming tangani olmaganman" degan kishiga bir qiziqarli hikoyatni ayta boshlabdilar. Voqeaning eng qizi joyiga borganda, shoh undan:

-SHikoyatchi do'sting o'sha daraxtning oldiga yetib bordimikan, deb so'rabdilar.

Hikoyatni zavq bilan tinglab, uning sehriga duchor bo'lgan kii bexosdan:

-U daraxt shahardan ancha uzoqda, hali-veri yetib borolmaydi, -debdi. SHunda Ulug'bek kulib yuboribdilar-da, yolg'onchiga qarata:

-Axir, sen "men bu odamni ham, daraxtni ham ko'rmaganman" demabmiding. Qanday qilib o'z do'stingning u yerga yetib bormaganini bilding? Yaxshisi, yolg'on ga'irganing uchun uzr so'rab, uning omonatini qaytarib ber, -debdilar.

Do'stiga xiyonat qilgan yolg'onchi noiloj aybiga iqror bo'lib, omonatni egasiga qaytaribdi.

Esi but inson uchun bundan ortiq sharmandalik, bundan ortiq azob-uqubat bo'lmas. Yolg'onchilik balosiga hech qachon yaqinlashmay xalqimizning "boingga qilich kelsa ham rost ga'ir" degan hikmatli o'gitiga amal qilmoq joiz.

O'zingni chin inson deb bilsang agar,

Faqat rost so'zlarga ko'nglingni ochgil.

Rost so'zdan hikmat mo'l, u koni samar.

Yolg'on so'z do'zaxga boshlaydi, qochgil!

ROST SO'ZLAGIN

Yolg'onchilar haqman deydi,
Garchi bo'hton qilmishlari.
Nohaqmi, bas, u pand yeydi,
Ortib borar tashvishlari.

Qisqa erur yolg'on umri,
U baribir fosh bo'lg'usi.
Qalbin isqirt chirkinlari
O'z nafsiga osh bo'lg'usi.

Haq haq erur, barhayotdir,
Noshud nohaq to'ar zavol.
Tuhmatchilik yomon otdir.
Unga umr esiz, uvol.

Ey Kaloniy, rost so'zlagin,
Olamaro obro'ng oshar.
El-yurt uchun naf ko'zlagin,
Ilhomlaring qaynab toshar.

Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga Hamza alohida ahamiyat berdi. Odamlarga mehru muhabbat qo'yish, kishilarning qadr-qimmatiga yetish, ularga izzat-hurmat bilan muomala qilish, Hamzaning fikricha, yoshlardagi insonparvarlikning asosidir. Yoshlarni bunday ruhda tarbiyalash dastavval, bolalarnin eng yaqin kishilariga, ayniqsa, ota-onasiga nisbatan muhabbat tuyg'ularini rivojlantirishdan boshlanishi kerak. SHoir ota-onani hurmat qilishni bolaning eng zo'r ijobiy fazilatlaridan biri debhisoblaydi. "Ul aqllik bola otasini ham qilgan tarbiya va shafqatlarini yod etib degan so'z" sarvlavhali uchinchi va

“Ul aqllik bolaning mushfiqa enasi uchinda qilgan tashakkurlari” nomli to’rtinchi darslarda ota-onalar qiyofasi chiziladi.

Yaxshilik qilsang, bo’lur joning omon,
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.
Yaxshi so’z birlan ilon indan chiqar,
So’z yomon bo’ls, pichoq qindan chiqar.

TO’G’RILIK

Bir kam’irning uyinda bir tu’ bal tuti bor edi. Nihoyatda to’g’ri o’sgan edi. Bechora kam’irning shul tutdan boshqa hech narsasi yo’q edi. pishgan vaqtda qurutub olub, bordonga solub, boylarga tortuq qilub, pul olub, butun avqotini tut sotub o’tkazar edi. Bir kun ul shaharning podshohi bir ayvon solmoqchi bo’lib ustun axtarganda, kam’irning tuti to’g’ri keldi. podshoh tutni ming oltunga sotub oldi. Bechora kam’ir boy xotun bo’lib qoldi. Bir kun tutni ko’rgali bordi. Ko’rdiki, tuti jannat kabi bir ayvon o’rtasinda turubdur. Kam’ir tutiga qarab dediki:

Ey, tutim, to’g’riliging qildi bizi davlatga yor,
Egri bo’lsang, san o’tun bo’lg’ay eding,
To’g’rilar jannatning ayvonidadur,
O’g’rilar ranju alam qonidadur.

Adham Rahmatning “Botir bola” ertak-dostonini ham maktabgacha trbiya yoshidagi bolalar sevib tinglaydilar. Xalq ertagi asosida yozilgan bu ertakda kambag’al-qashshoq ovchi yigit haqida ga’ boradi. Ovchi kunlardan bir kun turna-’odshoni tutib oladi. U yigitdan meni qo’yib yubor deb iltijo qiladi. Ovchi ishonuvchan. Bu kambag’al hayotda hamaga ishonadi. Hatto turnaga ham. Yigit qo’lidan ozod bo’lgan turna:

Rahm qilding menga sen
-Yaxshi bola ekansan
Ko’p tortiqlar berurman
Agar borsang senga men, - deb unga va’da beradi.

Kambag'al bola yaxshi niyat, katta umidlar bilan turna-'odshonikiga boradi. Turna va'dasida turib, bola talab qilgan "Ochil dasturxon"ni beradi. Bu dasturxon oddiy emas, sehrli ekan:

Sevgandan bolajon

Debdi: - Ochil dasturxon,

Keng ochilib ketibdi.

Birdan shunda dasturxon.

Turli-tuman ovqatlar

Dasturxonga to'libdi.

Ona-bola yeyishib,

To'yib xursand bo'libdi.

Har birimiz imon tushunchasining mohiyatini to'g'ri anglab, tushunib olsak, imonni izohlovchisi bo'lgan diyonat, vijdonlilik, insof, mehr-oqibat, adolatlilik, poklika halollik, kamtarlikning ham mohiyatni bilib olamiz. Faqat imonli kishilargina poklik va halollik, diyonat, ezgulik, mehr-oqibat, sahovat, muruvvat yo'lida bo'ladilar. SHuning uchun imon tushunchasini, uning mohiyatini keng qamrovli asosda bayon qilishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Imonli kishilar Ollohdan qo'rqish, bandadan uyalish ne ekanligini chuqur idrok etganlar. Ollohni bir, payg'ambarimizni uning elchisi deb bilish-imonning bosh belgisi hisoblanadi. Imonli bo'lgan kishilar butun hayotlarida, ishlarida, faoliyatlarida, uyda, ko'chada, birovga, o'z oilasiga munosabatlarida g'araz bo'lmaydi, ta'madan va hamromdan hazar qiladilar. Har ishlarida faqat bu dunyoni emas, oxiratni ham o'ylab ish tutadilar. Barcha amallari a hatti-harakatlarini shunga bo'ysundirishga harakat qiladilar.

Imon arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi-ishonch demakdir. SHariatda esa janob payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga Olloh tarafidan keltirgan barcha xabarlarga til bilan iqror bo'lib, dil bilan tasdiqlashga imon deyiladi. Ya'ni Qur'oni Karim va Hadisi SHariflar orqali Olloh to'g'risida. Jannat, do'zax, qiyomat kuni haqida berilgan xabarlarga ishltnch-imondir.

Ma'naviy-axloqiy fazilat sifatida esa imon faqat odamzotgagina xos ruhiy xodisa jumlasiga kiradi. Inson. Odamzotdan tashqari hech bir maxluqotda imonning o'rni-tagi yo'q. Binobarin, odamzot jamiki boshqa jonzotlardan biron bir narsaga ishonib, uni muqaddas deb bilishi, ya'ni imon keltirishi bilan ajralib turadi. Imon kishi ma'naviyatining. Axloqining o'q ildizi, poydevori, negizidir. Imondan mahrum kimsaning aqli nechog'li o'tkir, irodasi naqadar keng bo'lmasin va shular tufayli o'zligidan qanchalik mag'rurlanmasin, u chinakam insonlar qatoriga hech qachon kiritilmagan, kiritilmaydi ham. Zero, imonsiz odam na Ollohdan qo'rqadi va na bandalardan uyaladi. U o'z nafsining itoatkor quli bo'lib, har qanday razolat va pastkashliklardan qaytmaydi. Olloh hammamizni shundan asrasin. Buning uchun imon yo'lini tutishimiz lozim:

Imonning mohiyati azaldan olam va odamzotning kelib chiqishi, odamning olamdagi o'rni qanday, inson umrining m'nosi nimada, zoti bashar nimaga da'vat etilgan, u nimalarga qodiru, nimalarga noqodir singari muammolar tashkil etib keladi.

Hamma dinlarda imonga alohida e'tibor beriladi. Imon barcha dinlarning ustini sanaladi. CHunonchi, zardushtiylik imoni uch tayanchga: niyat-fikrning sofligiga, so'zning sobitligiga, amallarning insoniyligiga suyanadi. Imonli kishi o'g'rilik va talonchilikdan, o'zgalarning mol-mulkiga ko'z olaytirishdan, birovning haqiga xiyonat qilishdan, boshqacha aytganda, o'zligiga, ya'ni o'z imoniga xilof, zid ish qilishdan o'zini tiya biladigan komil insondir. Imonli odamga yuqorida qayd etilgan ishlarni qilma, gunoh bo'ladi deb targ'ib qilishning hojati yo'q.

Bundan 1400 yil muqaddam Ollohnin irodasi bilan Muhammad alayhissalom faoliyatlari tufayli bunyodga kelgan islom ta'limotiga ko'ra, imon mohiyatini Qur'oni Karimning quyidagi surasi ochib beradi: "CHin qo'nglim ila imon keltirdim: Ollohi taologa va uning farishtalariga va uning kitoblariga va uning payg'ambarlariga ham bu dunyo yo'q bo'lib oxirat kuni bo'lmog'iga va qadarga, ya'ni yaxshi va yomon ishlar har qaysisi ilohi taolodan bo'lmoqligiga va o'lgandan so'ng qabrdan tirilib va bularning hammasi haqiqat ekaniga. Dilim birla guvohlik berurman, albatta, Ollohdan o'zga hech ma'bud yo'qdir. Yana

guvohlik beraman, albatta, Muhammad Ollohi taoloning bandasi va barcha bandalariga din ahkomlarini o'rgatmoq uchun yuborgan payg'ambaridur".

Qur'oni Karimda imonli odamlarning belgilari quyidagicha tavsiflanadi. Ular mo'min, royish, yuvvosh, itaatkor, quruqso'zlikdan qochuvchi, poklikka intiluvchi. SHartnomalariga rioya etuvchi, itoatga amal qiluvchilardir.

Hozirgi kunda Yer yuzida diniy imonning bir talay turlari bo'lib, jahon ahllari aro keng tarlgani to'rtgadir: buddaviy imon, iudaviy imon, isoviy imon, islomiy imon. Diniy imon yo'nalishlari xilma-xil bo'lgan holda mazmunan oliy bir ibtidoaga ishonch ruhining qalbda qaror to'ishidan kelib chiqib dunyoni anglashdir. Ya'ni bu imon turlari mazmun jihatdan farqlansa-da, ammo, mohiyatan birdir. U ham bo'lsa, biron-bir narsa va g'oyani benihoya sharifu muqaddas, azizu mukarram bilib, kundalik faoliyat va xulq-atvorda ana shu e'tiqoddan kelib chiqib, hatti-harakat qilishdan iboratdir. Binobarin. Jamiki imon turi kishi amaliy faoliyat va xulq –atvori dasturi sifatida namoyon bo'ladi.

Imon shaxs ma'naviy-ruhiy olamida qaysi yo'nalishda qaror to'masin. Uning sharti asosan bittadir. Ya'ni imonli odamning so'zi bilan ishi bir bo'ladi. Bunday inson har qanday sharoitda o'z so'zi va ahdnomasida turadi. Agar shunday qilmasa, vijdon azobida qoladi va o'zini-o'zi sira kechirmaydi. Demak. Vijdon, halollik, poklik, rostgo'ylik, insof-diyonat, sahovat, muruvvat, adolat, xalq, vatan ishq bilan yashash faqat imoni butun odamlargagina xos fazilatdir.

Diniy imon bilan birga inson tajribasi, bilimi tufayli yuzaga kelgan dunyoviy imon ham bor. Dunyoviy imon mazmunini olam va odam haqida so'nggi ikki ming yil mobaynida kashf etilgan ilmiy-falsafiy bilimlar, mehnat ahlining to'plagan hayot tajribasi. Ijtimoiy xotirasi, turli-tuman udumlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar va ular zamiridagi bilimlar tashkil etadi. Dunyoviy imonning o'zagi odamiylikdan iborat bo'lib, uning tarkibiga kiradigan unsurlar, qirralar, jihatlar g'oyat turli-tumandir. Odamiylik deganda xalqimiz uzoq tarixi davomida turli sinovlardan o'tib sayqal to'ib kelayotgan va faqatgina ijobiy fazilatlar tarzida e'zozlanadigan axloqiy qadriyatlarni tushunsak bo'ladi. Odamiylik g'oyasi xalqimizning butun turmush tarziga, urf-odatlari hamda an'alariga, uning mislsiz boy og'zaki va yozma ijodiga, mumtoz adabiyotimiz

va san'atimizga singib ketgan bo'lib, hozircha chuqur o'rganilib umumlashtirilgani yo'q. "Odam bo'lish oson, odamiy bo'lish qiyin", "otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l", "O'zingga ravo ko'rmaganni boshqaga ravo ko'rma", "Yomon o'z g'amida, yaxshi-el g'amida" singari hikmatlarda ajdodlarimiz ardoqlagan insoniylik qadriyatlarining bir zarrasigina aks etgan xolos.

Diniy va dunyoviy imonning mohiyatida andak tafovut bo'lsa ham, ularning mazmuni va shakliy tuzilishi bir xil. CHunonchi, diniy imonda ko'proq Ollohga, dunyoviy imonda esa odamiylikka, chin insoniylikka urg'u beriladi. Ularning har ikkovi ham aslida kishini chinakm, bosh harflar bilan yoziluvchi INSON bo'lib tarbiya to'ishiga qaratilgan.

Dunyoviy imon esa mash'um sinfiylik mezoniga solinib soxtalashtirildi, buzib talqin etildi. Oqibat shunga olib keldiki, hatto eng yaqin tug'ishganlar, ya'ni ota-ona ona-bola, aka-uka, o'a-singillar-hamma hammasi bir-biriga ashaddiy dushman qilib qo'yildi. 70 yil mobaynida kishilarimiz ham diniy, ham dunyoviy imoniga zid g'ayriinsonimy ruhda tarbiyalanib keldi. Millatimiz kishilari orasida o'z imoniga qarshi zamona zo'ravonlariga yaltoqlilik, xushomadgo'ylik. CHaqimchilik, ta'magarlik, poraxo'rlik, g'irromlik, xiyonatkorlik, riyokorlik, xullas til bilan dilning, dil bilan amalning boshqa-boshqaligi, imoniga zid singari axloqiy illatlar bolalab ketdi. Diniy va dunyoviy imon mayib-majruh holatga keltirildi.

Imon kishilik hayotida shu qadar hal etuvchi mavqega egaki, usiz chin ma'nodagi din ham, axloq ham, inson ham, demakki, jamiyat ham bo'lmaydi.

Imonli bo'lishga intilish qiyin mashaqqatlidir. Imonli odam barcha qiyinchilik va mahrumliklarga ongli ravishda bardosh bergan holda halol-'oklik, insof-diyonatlilik, sahiylik, ezgulikni ulug'lash va yovuzlikka qarshi kurash, vatan'arvarlik, xalq'arvarlik kabi fazilatlarni o'zida gavdalantirishga harakat qiladi va shunga erishadi. U ma'naviy go'zallikni moddiy to'kinchilikka aslo qurbon qilmaydi. Odamlar uchun yashash, ular dilini o'rinsiz og'ritmaslik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik imonli insonning hayot dasturidir.

Yuqorida aytganimizdek, dunyoviy imonda ko'proq inson axloqidagi odamiylikka urg'u beriladi. Kundalik hayotda imon so'zi keng qo'llaniladi.

Bunda ko'proq dunyoviy imon ma'nosi ko'zda tutiladi. CHunonchi, xalqimizda ayrim kishilarning o'ta aloqsizlik hatti-harakatiga nisbatan "imonsiz" degan haqoratomuz ibora ishlatiladi. Bu haqorat zamirida Ollohgga ishonch-e'tiqodi yo'q, xudodan, dindan qaytgan, xudosiz ma'nolaridan tashqari vijdotsiz, vijdonfurush, yaramas, razil, diyonatsiz kabi dunyoviy imon ham aks etgan. Bu shunday og'ir diniy va dunyoviy haqoratki, o'tmishda shu haqoratga asossiz duchor bo'lgan oriyatli kishilar haqorat etuvchi kimsa ustidan qoziga shikoyat qilishgacha borgan. Imoni yo'q kishilar esa mahalla-kuyda, yaqin kishilari orasida la'natlangan hisoblangan, unday kishilar bilan muomala qilinmagan, oxir-oqibatda oriyati dosh berolmasa ko'chib ketishgacha borilgan...

Zamondoshimiz bo'lmish odamlarni, Siz kabi yoshlarni imonli sifatida quyidagicha tavsiflashimiz mumkin: e'tiqodli, o'zining aniq maslagiga ega, taqvodor, hamiyatli, oriyatli, or-nomusli, sharm-xayoli, vijdonli, andishali, insofli, kamtarin, halol va pok, to'g'ri so'z kabi fazilatlar sohibidir.

Demak, insoniylikning muhim shartlari-diyonatlilik, mehr-shafqatlilik, poklik va halollikni imon tushunchasi o'z ichiga oladi. CHunki, faqat imon sohibi bo'lgan insondagina diyonat, mehr-shafqat, poklik va halollik bo'ladi. Imonsiz kishilardan uni kutish mumkin emas. Ana shu va boshqa fazilatlar bo'lmagani uchun ham ba'zi odamlarga nisbatan imonsiz so'zini ishlatamiz. Inson

imonlilikning mezonlari

Endi imonlilikning ba'zi kategoriyalarini qisqa izohlashga o'tamiz. Ularning mazmuni, mohiyati va amaliy ahamiyatini chuqur anglab olmoqlik va o'zimizning kundalik hatti-harakatimizda amal qilmoqlik bizni har damda yuksak insoniylikka, komillikka tomon eltadi, demakki imonimiz mustahkamlana boradi. Imonning boshi-taqvo. Taqvo-har noto'g'ri ishga qo'l urishda-Ollodan qo'rqish, yomon ishlardan saqlanish. Ollohdan qo'rquvchi banda oilada jamiyatda halol yashaydi, haromga qo'l urmaydi, oxiratda javob berishini o'ylab, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, to'g'ri bo'ladi, poraxo'rlik qilmaydi, qasamxo'r bo'lmaydi, birovni aldamaydi, yolg'on ga'irmaydi, kishilarga, vatanga xiyonat qilmaydi va boshqalar. Ilohi hammamizga ham taqvodor bo'lish nasib etsin. Bu o'zimizga bog'liq. SHarm-xayo ham imonlilik belgisi sanaladi. SHarm –bu so'z har bir

odamning nojo'ya, yomon g'atti-harakatlardan o'zini tiya olish. Uyalish hissi. Hadimi shariflarda aytilishicha, odam, eng avvalo o'zidan uyalishi kerak. Nojo'ya, yomon qilmishi. Xatti-harakati uchun o'zidan uyalgan odam o'zgaga ham nojzya hatti-harakatni ravo ko'rmaydi. O'zidan uyalmagan odamda sharm bo'lmaydi. Demak, sharm odam o'z nojo'ya harakati uchun o'z vijdoni, diyonati oldida javob berish hissi, desak bo'ladi.

Hayo-bu o'zbekcha uyat demakdir. Xayosiz, behayo deyilganda, uyatsiz ish qilganda xijolat chekmaydigan, odob-axloqsiz kishi tushuniladi. Hayo erkak kishiga nisbatan ayollarda tabiatan ko'proq bo'ladi. Erkak kishi bemalol aytadigan ba'zi so'zlarni, ayollar turli andisha va uyalish tufayli ayta olmaydilar, hayo ularga yo'l bermaydi. Xayoli bo'lish, bu faqat uyatli so'zni aytmaslikda emas. U bundan ham ko'ra kengroq ma'no va mazmunga ega. SHarm-hayoli bo'lish insonni hayvon singari tubanlashib ketishdan salaydi. O'z nojo'ya hatti-harakatidan uyalish hissi faqat odamlargagina xos xususiyat. Farzandlarimizni sharm-xayoli qilib tarbiyalash oiladan boshlanadi. U milliy tarbiyaning muhim jihatini tashkil etadi. Imonli bo'lishning belgilaridan biri or*nomus hisoblanadi. Or qilish odamning o'ziga nomunosib yoki ko'rmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg'usidir.

Or yana biror narsadan hazar qilishni ham bildiradi.

Oriyat esa or-nomusdan tashqari, izzat-nafs, qadr tuyg'usidir.

Odatda oriyatli odamlar o'zlari v oilalarining, tug'ushganlarining izzat-nafsi, qadri, hurmatini yuksak tutib, boshqalar tomonidan to'talishi, haqorat qilinishi va hurmatsizlanishiga loqaydlarcha qarab turmaydi, turolmaydi.

Nomus-bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari kishining o'z mavqeini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'usini, oila va ajdodlar sha'niga dog' tushurmaslik ma'nosini ifodalaydi. Ko'pincha, biror kishini, uning oila a'zolarini, ajdodlarini nohaq haqoratlasalaru, u kishi bunga be'arvo, loqaydlarcha tursa, undaylarga qarata senda or-nomus, oriyat bormi o'zi, deb xitob qilinadi. Bizning ota-bobolarimiz, xalqimiz qadimdan or-nomusli, oriyatli bo'lib kelgan, shuning uchun o'z yurtini, uning tu'rog'ini, onalari va farzandlarini boshqa bosqinchilar tomonidan to'talishini o'zlari uchun or deb bilganlar. Ko'rinadiki, or-

nomus, oriyat mohiyatida vatan'arvarlik, xalq'arvarlik tuyg'ulari yashirilib yotadi. Imonli bo'lishning yana bir belgisi odamning diyonatli, vijdonli bo'lishidir. Diyonat va vijdon bir-biriga yaqin tushuncha. Diyonat va vijdon odamlardagi insof tuyg'usiga ham ohangdir. Diyonat va vijdon kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe'l-atvori uchun avvalo, o'z oldida, qolaversa, oila, jamoat, jamiyat va vatan oldida ma'naviy ma'suliyat his etishidir. Vijdonli, diyonatli kishi nohaq, adolatsiz ishlardan g'azabga keladi, ularga qarshilik bildiradi, o'z faoliyatining yaxshi tomonlaridan qanoatlanib xursand bo'lsa, yomon tomonlaridan norozi bo'lib, ruhan eziladi, vijdon azobiga uchraydi. O'zini bilgan odamga vijdon azobidan og'irroq jazo yo'q. SHuning uchun xalqimizda vijdon azobi go'r azobi degn maqol bor. Bu maqolning tagida chuqur ma'no yotadi.

Mehr-shafqatlik ham imonning belgilaridan biridir. Yuqoridagilar kabi mehr-shafqat ham xalqimizga mos xususiyat sanaladi. Mehr-shafqat odatda yetim-esir, qarovsiz qolgan qariyalar, g'ariblarga, nogironlarga nisbatan moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish tuyg'usi, desak bo'ladi. Bizning mustaqil Res'ublikamiz rahbariyati ota-bobolarimiz udumini davom ettirib, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ota-onasiz, qarovsiz qolgan bolalar va hech kimi yo'q qariyalar, shuningdek, nogironlarga nisbatan yuksak mehr-shafqatlik namunasini ko'rsatayotir.

Halol-bu insonlar uchun ruxsat qilingan yaxshi, ijobiy ishlar, hatti-harakatlar majmuasidir, mehnat evaziga to'ilgan narsalar, shuningdek, pok va toza oziq-ovqatlar sirasidir. Halollikning yanada kengroq ma'nodagi jihtlari bu turmushdagi halollik, o'zaro muomala-munosabatdagi halollik, jamoa orasidagi halollik, savdo-sotiqdagi halollik, do'stlar o'rtasidagi halollik va shu kabilardir. Yuragi, qalbi pok va toza, halol yo'lidan yurgan insonlar hamisha xotirjam bo'ladi, ko'ngli ravshan, doimo sihat-salomat yuradi. Xorazmlik qomusiy olim, buyuk alloma Mahmud az-Zamahshariy bu haqda shunday deb nasihat qiladi: "halol va pokiza kishi doimo xotirjamu tinchlikdadir, birovga xiyonatu yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir".

Hayot asosan oiladan boshlanadi. O'zbek xalqida "qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bor. Demak, ota-ona pok va halol bo'lsa, farzandi ham shu ruhda kaol to'adi. Farzanddagi yaxshi fe'l va amallar halol luqmadandir.

II.BOB bob bo'yicha xulosa.

Xalqning bu boyligi, birinchi navbatda asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari – qo'shiq, maqol, to'ishmoq, afsona, rivoyat, latifa, ertak, naql va dostonlarda o'z aksini to'gan. Chunki ularda xalqning pedagogik g'oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ma'naviy-axloqiy ideallari o'ziga xos yo'sinda aniq, ibratli va qiziqarli tasvirlangan, hikoya qilingan voqea-hodisalarda o'rnak bo'ladigan o'gitlar berilgan, xalqning hayotiy tajribasi, milliy an'analari, urf-odatlari va falsafasi bayon etilgan. Xalq og'zaki ijodi asarlari badiiy jihatdan yuksak takomilga ega ekanligi, tinglovchilarning, ayniqsa, yosh bolalarning oson tushunishiga, idrok etishiga qulayligi tufayli xalq pedagogikasining eng muhim, ko'p qamrovli va tarbiyaviy ta'siri g'oyat kuchli tarmog'i hisoblanadi. Chunki, maqollar xalqning ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida vujudga kelgan fikrlarni lo'nda, aniq va obrazli ifodalovchi bir vosita bo'lsa, naqlar hayotiy tajribalari, nasihatimiz fikrlari, donishmandligi, axloq qoidalariva falsafasini sodda syujet, ibratli mazmunda ifodalovchi hikoyalardir. Ertaklar esa falsafa, axloq, din, badiiy to'qima va hayolotga asoslangan xalq donishmandligining mahsulidir. Shu bois ertakdagi to'qima voqea-hodisalar silsilasida xalqning ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlari, axloq-odobning o'ziga xos milliy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Rivoyatlar ham asosan ijtimoiy-maishiy

voqealarni, tarixiy shaxs va hodisalarni uydirmalar vositasida bayon etuvchi kichik xajmli hikoyalar bo'lib, ularda lutf va nazokat, aql va idrok, ishq va vafo, adolat va sahovat, vatan'arvarlik va mehnatsevarlik madh etiladi, zulm va zo'rlik, xaqizlik va bosqinchilik qoralanadi.

Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining yirik namunasi hisoblangan rivoyatlarda umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan bo'lib, ularda xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, urf-odatlar, marosimlari, an'analari, orzu-umidlari, erk va ozodlik yo'lidagi mardonavor kurashlari, vatan'arvarligi, yaqqol ifodalangan.

III -Bob . 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning shakl va metodlari.

3.1. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish bo'yicha tajriba –sinov ishlarini tashkil etilishi.

Xulosa shuki, poklik va halollik imonli bo'lishning asosiy shartidir. Insondagi yaxshi yoki yomon illatlar uning imoniga, ya'ni pokligi va halolligiga bog'liq. Inson imonining pokligiga doimo shayton rahna solib, uni yo'ldan adashtirmoqchi, nosha'riy yo'llarga solmoqchi, halollik, poklik yo'lidan urmoqchi bo'lib qalbida g'ulg'ula uyg'otishga harakat qiladi. SHuni yaxshi esda saqlashimiz kerakki, poklik va halollik yonida doimo uni shu yo'ldan ozdirmoqchi bo'lgan shaytoniy vasvasa hamroh bo'lib yuradi. Ozgina imon yo'lidan toyilishga moyillik bo'lsa, o'sha yerda darrov shaytoniy hissiyot bosh ko'taradi va oxir oqibat qalbini zabt etishga intiladi. SHuning uchun doimo imon, poklik va halollik xushyor turishimiz kerak. Bu, ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish davrida nihoyatda zarur.

Yuqorida imonli odamning asosiy belgilari ustida fikr yuritdik. Ularning har birini inson uchun bir bezak, deb bilmoq kerak. SHu o'rinda inson uchun nihoyatda zarur bo'lgan boshqa bir bezak ustida to'xtab o'tmaslikning iloji yo'q.

Busiz inson barkamol bo'la olmaydi. U ham bo'lsa kamtarlik belgisidir. Kamtarlik odamni bezaydi, obro'sini oshiradi, do'stlarini ko'paytiradi.

Kamtarlik-inson ichki ma'naviy dunyosining namoyon bo'lishidir. Agar insonning qonida. Qalbida yumshoqlik, saxovat, odob-andisha, sharm-hayo, or-nomus, oriyat bo'lmasa, ming harakat qilmasin, baribir, odamlar ko'ziga kamtar bo'lib ko'rina olmaydi.

O'zbek xalqi urf-odatida, milliy qadriyatlarimizda takabburlik qiluvchilar, firibgarlar, maqtanchoqlar, manmanlar keskin qoralanadi. Kamtarga kamol, manmanga zavol, degan o'gitlar behikmat emas.

Tarixchi Xondamir "Mukomirul-axloq" kitobida: "Boshingga takabburlik havosini keltirma. CHnki takabburlik bilan hech kim biror joyga yetgan emas. Go'zallar zulfi kabi shikastlikni odat qil, bu bilan har nafsda minglab ko'ngilni ovlaysan". –deb ko'rsatgan edi.

Xullas, har birimizni imon, poklik va halollik, or-nomus, sharm va xayyo, kamtarlik, qo'yingki insonni bezovchi go'zal xulq-odob, axloq kabi muqaddas fazilatlarni egallashimiz kerak. Xalq og'zaki ijodida bolalarni bosiqlikka, sofdillikka, oddiylikka undash bilan birga, ulardagi gerdayish, ichi qoralik, chaqimchilik va boshqa salbiy sifatlar qoralangan: "Manmanlik qilma, netarsan obro'yingdan ketarsan", "Sen o'zingni maqtama, seni birovlar maqtasin", "Egilgan boshni qilich kesmas", "Mevali daraxtning meysi qanchalik ko'p bo'lsa, uning boshi shunchalik pastga egiladi", "Baxilning bog'i ko'karmas", "Birovga go'r qazisang, o'zing yiqilasan", "Egri o'ltirib, to'g'ri ga'ir", "Ko'r'angga qarab oyoq uzat" singari xalq maqollarida pand-nasihat ifoda etilgan. Ko'plab maqol va matallarda bilimli bo'lish ulug'lanadi, bilimsizlik qoralanadi. "Bilagi zo'r birni yiqar, bilmi zo'r mingni yiqar", "Ilmi yo'qning ko'zi yumuq", "Ilmsiz bir yashar, imlmli ming yashar", "Ko'p o'qigan – ko'p bilar", "Olim bo'lsang, olam seniki", "O'qigan o'g'il – otadan ulug'" va hokazo.

Boshlang'ich sinflarda bolalarning tarbiyasida ertaklardan foydalanishning ahamiyati juda katta. Bunday zaruriy va mas'uliyatli ishga ko'ngilda zo'r muhabbat bilan kirishmoq kerak. Ertaklar yosh

avlodlar uchun eng samarali hayot maktabidir, chunki keksa avlod vakillari o'z orzu-havaslarini yosh avlodda o'g'il qizlarida ko'rinishni istaydilar, o'zlari ko'rgan mashaqqatlarni bolalariga ravo ko'rmay, ularni baxtiyor hayot kechirishlarini orzu qiladilar. Shu sababdan ham ertaklar qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi, ertak qahramonlari dushman ustidan g'olib keladi, daryolar ko'zini ochib, sahrolarga suv chiqaradi, tog'lar bahrini yorib, yo'l ochadi, konlar to'adilar.

O'z ertaklari orqali xalq, el-yurtini qorachig'iday avaylab saqlovchi ajoyib vatan'arvar qahramonlarni ulug'laydi; ayollarning haq-huquqini himoya qildi; osmonda uchishni, oyga yetishni orzu qildi; «oynai jahonlar» orqali yer yuzida bo'layotgan voqealarni bilib turdi, uzoqni yaqin qildi; «ochil dasturxon» lari orqali nozu ne'matlar yaratdi; mardlik, e'chilik, dovyuraklik, mahnatsevarlik, halolik, vafodorlik tog'rilik g'oyalarini ilgari suradi, ulug'laydi.

Xalq donishmandligi asosida yaratilgan ertaklar avloddan-avlodga o'tish jaroyonida shakl jihatidan o'zgarishlarga uchrab kelgan bolsada, lekin o'z mazmuni, tarbiyaviy ta'sirini yo'qotmasdan hozirgi va kelgusi avlodlarga xizmat qiladi.

Xalqning ko'p asrlar mobaynida to'plagan, sayqal bergan ijodiyoti durdonalarining tarbiyadagi roli bebahodir, xalq donishmandligi ildizidan bahra olib tarbiya ko'rgan, eng ezgu tilaklari ma'naviy kamolat madaniyatga borib taqaladigan xalqimiz ruhida bu donishmandlikka hurmat bilan kurash, erishish, o'rganish hamisha oldinda bo'lib kelgan. Biz hozirgi va o'tmishdagi yozuvchilar, olimlarning adabiy, tarjimai hollariga nazar tashlar ekanmiz, ularning o'sib kamol to'ishlarida buvi va buvallarining uzoq tunlarda aytib bergan ertaklarning katta hissasi borligini sezib turamiz. Barcha ertaklarda ota yetakchi o'rinda turadi, inson hayotda, uning tarbiyasida ota yetakchi o'rin turadi, inson hayotda, uning tarbiyasida ota pand-nasihat qilgan kishi hech qachon kam bo'lmaydi, ko'zlagan maqsadiga yetadi, murodi hosil bo'ladi.

Buni biz o'zbek xalq ertaklaridan biri «Uch og'a-ini botirlar» misolida yana ravshan ko'rishimiz, o'zimizga yetarli darajada xulosa chiqarishimiz mumkin. O'zbek xalqi bolajon xalq, u serfarzand bo'libgina qo'lmay, balki bolaning tog'ri tarbiyasiga ham jiddiy e'tibor beradigan xalq. Xalq tarbiyashunosligida, mutafakkirlar donolarning pand-nasihatlarida qarashlarida, ijodiy mahsulotlarida, xalq og'zaki ijodida bola odobi, axloqi yetakchi o'rinda turishi bejiz emas.

Chunki bunday asarlarda o'zbek xalqiga xos bo'lgan ibratomuz tomonlariga keng o'rin berilgan. Ota-onani hurmat qilish, odamlarga mehr-oqibatli bo'lish, dinda e'tiqod, kattalarning o'git-nasihatlariga quloq solish, kamtarlik-kamsuqumlikka intilish, ilm-ma'rifatni qadrlash asosiy o'rinda turadi.

Xalqda shunday bir naql yuradi: haqiqiy komil insan yomon xislatlardan, ma'qul bo'lmagan xulq atvordan pok bo'ladi, go'zal sifat va axloq bilan o'zini orasta qiladi, halol mehnat qilib umr kechiradi, yomonlardan chetlashadi, yaxshilar qatoridan o'ziga munosib joy oladi, hech kimga ozor berilmaydi, el gulzoriga kirib, beruhsat birorta ham gul uzmaydi, kamchiliklarini ko'rsatganlardan minatdaor bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar turli axloqiy tushunchalarga, ya'ni xushmuomalalik, inson'arvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, rostgo'ylik kabi tushunchalarni maktablarda o'rgatiladi. Bu davr bolalarining xotiralari juda taraqqiy etganligini hisobga olsak, berilayotgan har bir manbaini bola juda tez payqab oladi. Maktab yoshidagi bolalarni qiziq ob'ektiga intiluvchan fiziologik ma'noda harakatchan bo'lishi e'tibor berilsa, berilayotgan materiallarni tez yodlab oladi, ammo voqealarni har doim ham to'g'ri baho berolmaydi. Boshqacha qilib aytganda, bola material ertaklarning ma'no va mazmunini ham to'la tushunib yetavermaydi. Shuning uchun ham o'qituvchilar oldidagi asosiy vazifa har bir o'tilgan mashg'ulatlar material ertaklarni har bir bolaga tushunarli va ayni choqda sodda so'zlar bilan yetkazishni talab etiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar ertaklarni tinglash bilan tafakkur doiralari bir qadar kengayadi, uy o'y hayol surish va shu hayollari yordamida hayotning katta va keng yo'liga chiqib olishni o'rganadilar. Va shu zaylda ozmi-ko'pmi mustaqil fikrlaydigan, tushuntirib bera olish ko'nikma va malakalariga erisha boradalar ham.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ertak bolaga ko'p narsa beradi, ko'p narsa o'gatadi. Ertakni aytib beruvchi, hikoya qilib beruvchi o'ziga savodxon bo'lishi, har bir asarni qiroat bilan ifodalashga talab etiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar ixcham, eytilishi jihatdan sodda bo'lishidan tashqari, chuqur falsafiy fikrlarni anglatishini so'raladi. Shu sababli ham oson o'rganiladigan bilimni hayotga bog'lab tushunnish ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Bolalarga o'gatiladigan har bir ertakni ularning yoshiga mos holda tanlab olib, bu ertakning hayotdagi o'rnini albatta tushuntirib, bolalarni bu jarayonda o'ynaydigan o'rinlari hamda ishtiroklarini ta'min etish uchun yaxshi zamin hozirlaydi va ko'zlagan maqsadga erishishlari mumkin, deb hisoblashga olib keladi.

Ertaklar asosida kichik maktab yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda olib boriladigan muzassam mashg'ulotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi mashg'ulotlar davomida bolalarga insoniy fazilatlar umumlashgan xalq ertaklaridan foydalanishga harakat qiladi. Bu esa hozirgi zamon talabi hisoblanadi.

Insonlarnig eng oliyjanob fazilatlaridan biri – hayotda halol yashash, yangi halol mehnat qilish, peshona teri to'kib, halol pul to'ish, el – ulus o'rtasida lafzini halol tutish, oilada halol bo'lsh, farzandlarini halollikka o'rgatishdan iboratdir. Halol mexnatdan bir so'mning qut-barakasi xaromdan keladigan ming, million so'mdan ortiq sanaladi.

Halolik nima? Bu kishilarning mol-mulkiga ola qaramaslik, birovlarining to'gan halol molini o'g'irlamaslik, davlat va jamoat mulkini halol asrash, pora olmaslik, birni mingga pullab, tekin daromad ketidan

quvmaslik, o'zining g'ayratu shijoati bilan to'gan, ozgina bo'lsa ham halol puliga qanoat qilish, sabr-toqatli bo'lish, to'ganiga shukronalar aytishdir.

Qadimda yaxshi odat bor ekan. Yo'lda ketayotgan odam kimningdir tushirib qoldirilgan pulini, u bir so'mmi, ming so'mmi, qat'iy nazar, erdan, terdan olib, «Kimniki bu?» deya uch marta so'rarkan. Hech kimdan sado chiqmasa, egasi qidirib kelsa, to'ib olar, degan andisha bilan panaroq joygami, daraxt butasigami qo'yib ketar ekan. U pulni hech kim olmaganini bilsa, darhol uni olib, qozixonaga yoki matchitga to'shirar ekan, chunki pul yo'qotgan odam yo qozixonaga, yo matchitga borib surishtirishi odat tusiga kirgan ekan.

Bizlarning ajdodlarimiz ana shunday halolu pok, kishi haqidan hazar qiluvchi, vijdonlari halollik bilan yo'g'rilgan kishilar bo'lgan. Ular bu odatlarni o'z farzandlari, nabiralari, yon-atrofdagi yosh-yalanglarga ham ustalik bilan singdira olganlarki, yaqin-yaqinlargacha bu udum saqlanib kelgan

Ilgari bizda eshik qulf solish, narsalarni ehtiyot qilib, panada saqlash kabi odatlar bo'lmagan. Bunday xatti-harakatlar qo'ni-qo'shnilariga ishonchsizlik, odamlarga nisbatan haqorat bo'lib tuyulgan, hamma narsa ochiq-sochiq yotgani bilan birov birovning mol-mulki u yoqda tursin, hatto xasiga ham ko'z olytirmagan. Chunki so'roqsiz olingan narsaning uvolidan qo'rqish bilan birga o'sha o'g'irlangan bir so'm ming so'mni yetaklab chiqib ketishini ular yaxshi bilishgan.

3.2. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning bo'yicha natijalar tahlili.

2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishga oid ishlarni amalga oshirish mumkin. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda **2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi** janrlaridan foydalanish: Dars jarayonida;

2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishga; O'quvchilarning ota-onalari bilan ishlash jarayonida uzviy bog'lab olib borilsa, kuzatilgan maqsadga erishiladi.

Turli xil kechalar, uchrashuvlar, musobaqalar, ko'rgazmalar o'tkazish va tashkil qilish, o'lka tabiatiga sayrlar uyushtirish va natijalardan, taasurotlardan kelib chiqib, rasmlar ko'rigi o'tkazish, insholar yozish va tajriba ishlarini olib borish ayni muddaodir.

Hozirgi zamon pedagog olimlari ekologik ta'lim va tarbiyaning maqsadi maktab o'quvchilarida atrof-muhitga mas'ullik munosabatini tarkib toptirishni ta'minlovchi ilmiy bilim, qarash va e'tiqodlarni tizimini shakllantirishdan iborat.

1. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning quyidagi psixologik xossalari:

kamtarlik fazilatlarini shakllantirishni;

halollik fazilatlarini shakllantirishni;

to'g'rilik fazilatlarini shakllantirishni;

xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishni targ'ib qilish ehtiyojini.

2. Ta'limiy vazifalar esa quyidagilarni shakllantirishni ko'zlaydi:

2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishning bilimlar tizimini;

2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish ko'nikmlarini;

2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish usullari haqidagi bilimlardan foydalana olish ko'nikmalarini ta'minlaydi.

Biz tanlangan bitiruv-malakaviy ishimizni yozish jarayonida tanlangan **“2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish”** mavzusi bo'yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 26-maktabning o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi bilan tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Tajriba sinov ishlari jarayonida mavzu bo'yicha o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasiga so'rovnoma savollari bilan murojaat qildik. Maqsad: Tanlangan mavzu bo'yicha maktab o'qituvchilari va o'quvchilarining qanday bilim, ko'nikma, malakalarga ega ekanliklarini aniqlash va ularga nazariy va amaliy yordam ko'rsatishdan iborat edi.

Yuqorida keltirilgan bir qator sabablarning kelib chiqish holatlarini aniqlash maqsadida 26-maktabning pedagogik jamoasi o'rtasida anketa so'rovnomalarini o'tkazdik.

Anketa so'rovnoma savollari quyidagicha. **2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish.**

1. **xalq og'zaki ijodi janrlari** deganda nimani tushunasiz?

2. **2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishda qaysi mutafakkirlarning fikrlarini o'rgandingiz?**

3. **2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishda tarbiyaviy tadbirlarning o'rni bormi?**

4. Qanday tarbiyaviy mavzularda **2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishni** shakllantirish mumkin?

5. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishni ta'lim jarayoniga tadbqiq etish mumkinmi?

6. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishda qanday fanlarning bog'liqligi bor?

Berilgan savollarga javoblarni tahlil qilib chiqqanimizdan so'ng aniqlovchi va shakllantiruvchi tajribalar asosida shu maktablarda dars berib kelayotgan o'qituvchilar bilan o'zimiz tanlagan **“2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish”** mavzusida tajriba ishlarini olib bordik. Tajriba boshida o'qituvchilarni ikki guruhga ajratib oldik.

Birinchi guruh – nazorat guruhi.

№	Mezonlar	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
		O'qituvchil ar	yuqori	o'rta	past	O'qituvchil ar	yuqori	o'rta	past
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.	O'qituvchilarning o'quvchilarni tarbiyaviy tadbirlar orqali 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishga oid	50	30	15	5	50	10	25	15

	bilimlarini egallashga ehtiyojlarini borligi								
2.	O'qituvchilarning o'quvchilarga 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish borasidagi bilimlar yuzasidan ma'lumotlarga egaliklari.	50	35	10	5	50	15	10	25
3.	2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish borasida ko'nikma va malakalarini shakllanganligi.	50	40	7	3	50	15	20	15
4.	O'qituvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda tarbiyaviy tadbirlar orqali 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishda ijodiy	50	35	10	5	50	10	15	25

	yondoshuvning mavjudligi.								
--	---------------------------	--	--	--	--	--	--	--	--

Ikkinchi guruh – tajriba guruhi. Ikkala guruh o'qituvchilariga ham bir xil matndagi savolnomalar tarqatildi. Tajriba –sinov ishlarini olib borish jarayonida tajriba guruhidagi o'qituvchilar bilan biz alohida ishlar, tushuntirish, suhbat, seminarlar, konferentsiyalar tashkil qildik. Tajriba –sinov yakunida nazorat va tajriba guruhi o'qituvchilarining berilgan savollarga javoblarini tahlil qilib chiqdik.

Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, tajriba–sinov o'tkazilgan tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhlari ko'rsatkichidan ancha yuqori.

Buning asosiy sabablarini quyidagilarda deb bildik:

- O'qituvchilarda pedagogika, psixologiya, metodika fanlari bo'yicha bilimlarni va pedagogik mahoratni yetishmasligi.
- Faoliyat jarayonida o'qituvchi shaxsi egallashi zarur bo'lgan bilimlarni egallashga va o'z ustida izlanishga yetarli e'tibor berilmaganligi;

Olib borilgan kuzatishlar **2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish** foydalanishda quyidagilarga amal qilish samarali natijalar berishini ko'rsatadi:

1. O'qituvchi bolalarning hammasini birday chin ko'ngildan yaxshi ko'rishi va buni shaxslararo munosabatlarda emotsional - hissiy ifodalay olishi, sinfda ijobiy ruhiy muhit o'rnatilishi;

2. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari ularning faoliyatini nazarda tutishi;

3. Bola imkoniyatlariga ishonch bilan qarash, u yaxshi o'qiydimi, o'zini yomon tutadimi, bundan qat'i nazar boladagi biologik va psixologik imkoniyatlardan to'la foydalanishga intilish.

4. Bolalarning psixologik holatini aniq bilish va ularda mehnatsevarlikni shakllantirish.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalar 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish f uchun umumiy sharoit yaratib, ular faoliyatini tashkil qilishning yo'nalishini belgilab beradi.

3-bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobda 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish amaliyotdagi holati o'z ifodasini topgan. Unda 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish foydalanishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish yo'llari ishlab chiqilgan. Tajriba-sinov ishlarida boshlang'ich ta'lim bosqichi fanlar bo'yicha tashkil etilayotgan mashg'ulotlar jarayoni va ularning mazmunini tahlil etish; o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish; o'quvchilar ishtirokida suhbatlar uyushtirish yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar metodikasi yoritilgan.

Xozirgi paytda yangi pedagogik va axborot texnologiyasi qonuniyatlari asosida pedagog olimlarimiz maktabdan tashqari tadbirlarni tashkil etishning turli shakl va metodlarni ishlab chiqish yo'nalishida muayyan Bitiruv malakaviy ishlarni olib bormoqdalar. Bizning xam bu boradagi Bitiruv malakaviy ishlarimizda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy ishini rejalashtirish dastur va usulubiy ishlanmalari, metodik qo'llanmalar, o'quv adabiyotlari muxim dasturiy asos bo'lib xizmat qildi. Amalga oshirgan taxliliy Bitiruv malakaviy ishlarimiz natijasida ishini boshlang'ich ta'lim bosqichi fanlari imkoniyatlaridan muvafaqqiyatli foydalanish yo'lidagi kamchiliklar aniqlangan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Umumiy xulosa.

Xulosa shuki, bola tarbiyasini dono xalqimiz ayganidek, u hali tug'ulmasdan ota, ona va butun oila a'zolari hamjihatligida boshlashimiz lozim bo'ladi. Olamda barcha narsa juft-juft bo'lib yaratilgan. Juft bo'lib yashash tabiat qonuni taqozosi. Lekin oila bo'lib yashash barcha mahluqotlar orasida faqat odam nasliga xosdir. Oila jamiyatning birinchi va birlamchi bo'g'ini, zarrachasi. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil to'adi. Er va xotin-ikki tirik vujudning, ikki olamning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan uchinchi bir olam-bu oiladir. Agar oila tinch-totuv, ahil bo'lsa, olam tinch va obod. Aks holda, turmush do'zaxga aylanadi, oila zindonning o'zi bo'ladi, buning jabrini esa er va xotinning o'zigina emas, balki farzandlari, yaqinlari ham tortadi.

Oilalarning poklikka va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi. SHaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi. E'tiqodiga ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. SHu ma'noda, oila-haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir.

Ota-onalar bolalarda yoshlikdan xalq, yurt taqdiri uchun fidoiylilik tuyg'usini shakllantirish, ezgulik inson'arvarlik, rahm-shafqatlilik ruhida tarbiyalashga ma'suldirlar. Buning uchun o'z farzandlarini yoshligidan boshlaboq narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analarimizga xos shakllarini qo'llashlari lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo'lgan "jangari" o'yinchoqlar, multfilmlar kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik maqsadga muvofiq bo'ladi. Balki, sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmlar, kitoblar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilimlarni ko'rishga qiziqtirish ular ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. O'zbek oilasining tashqaridan sezilmaydigan o'ziga xos ichki qonun-qoidalari, axloqiy, ma'naviy mezonlari bor. Quyida biz shulardan ba'zilari. Turmush uchun zarurlari haqida to'xtab o'tishni lozim to'dik, zero, bu siz kabi oila qurish oldida turgan yoshlar uchun foydadan holi bo'lmas, degan niyatdamiz. Aytmoqchi bo'lgan ga'larimizni eshitgan bo'lsangiz, yana bir bor eshitsangiz foydadan holi emas. Rizq-ro'z tongda har bir odamga, oilaga ulashiladi. Kimki g'aflat bosib, o'rnida yotaversa, rizqidan quruq qoladi, deyiladi. Barvaqt turilsa, ish unumli, o'sha kun xayrli bo'ladi... Yuz-qo'lni yuvmasdan hol-ahvol so'ralmaydi, yuz-qo'lni yuvgandan so'ng kichiklar kattalarga salom beradilar, ayollar nonushta tayyorlaydilar, qizlar-kelinlar hovli, eshik oldini su'urib, suv se'ib qo'yadilar.

Ish yoki o'qishga oilaning tabarruk yoshlaridan fотиha olib ketilishi axloq-odob doirasiga kiradi qaytganda. Avval ularga uchrashib, salom beriladi, hol-ahvol so'raladi... Oilada odobiga ko'ra katta yoshlilar bolalarga, balog'atga yetgan farzandlar. Kelinlar katta yoshlilarga, ochiq-sochiq holda ko'rinmaydilar, bachkana qiliq qilmaydilar pardasiz so'zlarni aytmaydilar. Ko'chaga uy kiyimida chiqilmaydi va boshqalar. Aytaversak. O'zbek oilasining fazilatlari ko'p, qonunlarda belgilanmagan, ammo, millatimizning qadriyatlariga aylangan tartib va talablari mavjud. Ularni farzandlarimiz o'zlashtirishni ham farz va ham qarzdir. CHunonchi, oilada ota-ona, qaynona-kelin, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori, ularning maqsadga muvofiqligi, munosabatlarning samimiyat darajasi ham yoshlarda sog'lom fikrning, sharm-xayo, mehr-oqibat, iffat, ibo, nazokat, lafz, ma'suliyat kabi ijobiy ma'naviy fazilatlar shakllanishiga zamin hozirlaydi. Xalqimizga xos ustivor fazilatlar asosan oilaviy muhitda, yaqin qarindosh-urug'larning bevosita aralashuvida yuz beradi. Bu hol mehnatga to'g'ri munosabat, halollik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e'zozlash, ayash, urf-odatlarini muqaddas bilish jarayonida amalga oshadi. Bunday sifatlarni o'zlashtira olgan har bir o'g'il-qizda oila'arvarlik, yurt'arvarlik fazilatlari rivojlanishi muqarrar. Ammo, oilaviy nizo va ajralishlarning sabablari tahlil qilinganda, shu narsa ayon bo'moqdaki, oila muhitning nosog'lomligi, oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, o'zaro til to'a olmaslik holatlari nafaqat o'sha oila, balki qarindosh-urug'lar o'rtasidagi xotirjamlikka ham rahn soladi. Eng achinarlisi-buning oqibatida e'tiqodsiz, diyonatsiz, maqsadsiz bolalar, hayotda o'z o'rnini to'a olmagan insonlarning paydo bo'lishidir.

SHunday qilib, oila-jamiyatning asosiy bo'g'ini. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatan, el-yurt, mustaqillik, ozodlik haqida berilgan tushuncha, tasavvur bolaning murg'ak qalbida bir umr muhirlanib qoladi. Oila mustahkam, tinch, faravon, sog'lom bo'lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Oilaning jamiyatdagi o'rnini, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz". Ya'ni ma'naviy sohadagi vazifalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz.

2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha quyidagi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish davomida belgilangan qonun – qoidalarga amal qilish.

2. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishni fanlar bilan uyg'unlashtirish;

3. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishni ta'lim –tarbiya jarayonida tashkil etish.

4. 2-sinf o'quvchilarida halollik, to'g'rilik, kamtarlik fazilatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy metod va usullarni izlab topish va amaliyotga joriy etish;

5.O'qituvchilar tomonidan berilayotgan bilimning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilayotganini doimiy nazorat qilib borish;

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1.O'zbekiston Res'ublikasi “ Ta'lim to'g'risidagi qonun” Toshkent

“ O'zbekiston ”1997 yil.

2. O'zbekiston Res'ublikasi “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Toshkent.

“O'zbekiston ” 1997 yil.

3. Ajdodlar o'giti. Toshkent, 1991 y, 154-b.
4. Bobolardan-bolalarga (to'plovchi Barakaev R), Toshkent, «Yulduzcha» nashriyoti, 1989 y. 125-b.
5. Baratov SH. Kichik yoshdagi o'quvchilar faoliyatini baholash. «O'qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1992 y, 45 b.
6. Baratov N., Aliqulov X. O'rta Osiyo mutafakkirlari axloq haqida. «O'zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 1974 y, 48-b.
7. Bahodirov O. Yangicha an'ana va urf-odatlar hayotga. «O'zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 1985 y, 42-b.
8. «Bir qal'oq oltin». «CHO'l'on» nashriyoti, Toshkent, 1995 y.
9. Bizning arxivimizdagi xalq og'zaki ijodi janrlari: «Alla-qo'shiqlar, ertaklar, rivoyatlar, maqollar, to'ishmoqlar, tez aytishlar».
10. Bozorova M. «Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni do'stlik va o'rtoqlik xislarini tarbiyalashda xalq an'analaridan foydalanish». Kand.diss. Toshkent, 1994 y.
11. Beruniy A.R. «Ruhiyat va ta'lim tarbiya haqida». «O'qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1992 yil.
12. «Bog'chaga-do'mboqchaga». «CHO'l'on» nashriyoti, Toshkent, 1992 y, 210-b.
- Badiiy terma kitob. Bog'chalarning katta guruhlar uchun. Toshkent, 1996 y, 322-326-b.
13. Boshlang'ich ta'lim jurnali, 1996 y, 2-6-7-8-sonlar: «Boychechak». Toshkent, 1989 y.
14. Valieva N. «Halollik va sofdillik nima?». Risola. Toshkent, 1968 y.